

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK – TEXNOLOGIYA INSTITUTI



**“YENGIL SANOAT MAHSULOTLARINI KONSTRUKTSIYALASH VA
TEXNOLOGIYASI” KAFEDRASI**

“KOSTYUM TARIXI”

fanidan

MA`RUZA MATINLARI

Namangan 2020

Ushbu ma'ruza matni "Kostyum tarixi" fani bo'yicha yaratilgan. Mazkur ma'ruza matni oliy o'quv yurtlarining bakalavr mutahassisligi uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchilar:

O.Mamadaliyeva– NamMTI "Yengil sanoat mahsulotlarini konstruksiyalash va texnologiyasi" kafedrasida katta o'qituvchisi.

D.Rayimberdiyeva – NamMTI "Yengil sanoat mahsulotlarini konstruksiyalash va texnologiyasi" kafedrasida katta o'qituvchi.

Taqrizchilar:

Yusupov S.A. – NamMTI "Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi" boshlig'i, t.f.n., dots. v.b.

Z. Ibragimova – "Istiqlol dizayn markazi" MCHJ rahbari

Reja:

1. Kostyum tarixi faniga kirish
3. Kostyumtarixi faniga umumta’rif
4. Kostyum tarixi faninig maqsadi
5. Kostyum tarixi faninng vazifalari
6. Kostyum tarixi fani bo’yicha xulosa

Xalq turmushining harqanday sohasi kabi tarixiy milliy kiyimlarni op’rganish etnik tarixi va madaniyatini, uning bishqa halqlar bilan o’zaro aloqalarini tadqiq eish bilan chambarchas bog’liq. Kost’yum tarixi fani libos dizayni yo`nalishidagi talabalari kost’yum tarixi, turlari, jahon sivilizatsiyasida san’at va madaniyatni o’rni haqida bilim va ko’nikmalar beradi. Jahon kost’yum tarixining qadimdan toki shukunga qadar bo’lgan ijodiy rivojlanish jarayonlari haqida ta’lim beriladi.

Kostyum tarixi fani bo’lajak talabalarga jaxon kost’yumtarixini o’rgatadi va uning ijodkor rassomlari faoliyati bilan tanishtiradi. Bu fan talabalarga inson ongi va xissiyotini shakllanishidan tortib bugungi kungacha yaratilgan va yaratilayotgan liboslarvaularningijodiy an’alaribilan tanishtiradi. Ularning g’oyaviy badiiy tomonlarini tushunishga yordam beradi.

Kostyum tarixi fani bo’lajak mutahassislargasohaningnazariy va amaliy asoslaridan, uning tarixiy taraqqiyotidan bilim-malakalar berishni o’z oldiga maqsad qilib qo’yadi. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

Kostyum fani mohiyati, mazmuni juda keng tarmoqli bo’lgani holda o’quv rejadagi barcha tasviriy va amaliy san’atga oid nazariy hamda amaliy jihatdan o’rganiladigan san’at soxalariga taalluqlidir. U o’quvrejadagi plastik anatomiya; umumkasbiy fanlar blokidagi tasviriy san’at metodikasi, qalamtasvir, rantasvir, san’at tarixi, tasviriy san’at texnologiyasi va nusxa ko’chirish, haykaltaroshlik, amaliy san’at, badiiy bezak san’ati, akademik qalamtasvir asoslari va kompozisiya, dastgohli akademik rangtasvir va kompozisiya tasviriy san’at o’qitishning zamonaviy texnologiyalarikabibarchafanlargaaloqador, hamdaularbilanuzviy bog’liq.

Mustaqil yashash xar bir xalq yoki millat uchun eng qadrli va ulug’ ne’matdir. Uning zaminida millionlar taqdiri, yurt istiqboli yotadi. Faqat mustaqillik sharoitidagina har bir millat o’zini tom ma’noda anglash imkoniyatiga ega bo’ladi. Chunki mustamlakachilik zulmi ostida bo’lgan xalq yoki millat o’zini-o’zi anglash imkoniga ega bo’lmaydi. Bunga bosqinchilik va zo’rovonlik siyosati yo’l bermaydi. Bu siyosat mustamlakachi davlatning o’tkir quroli sifatida millatni o’zligidan mahrum qilishga, uning qadriyatlarini, urf-odatlarini, rasm-rusumlarini kamsitishga xizmat qiladi. Bunday siyosat yordamida mustamlakachilar unlab millatlarning tili,

madaniyati, san'atini kamsitib keldilar va bularga bepisanda munosabatda bo'ldilar. Turli xalqlarni milliy o'zlgini anglashdan mahrum qilish orqali ular o'zlarining g'arazli maqsadlariga erishishga harakat qilib keldilar.

Ma'lumki, bundan qariyb 130 yil muqaddam xalqimiz Chor Rossiyasini mustamlakachilari tuzog'iga ilingan edilar. Ular tomonidan qilingan mudhish ishlar keyinchalik sho'rolar hukmronligi davrida yanada ayanchli bir holda davom ettirildi. Stalin qatag'onlari, davrida erki, haq-huquqlari poymol qilindi. O'sha davrlarning mudhish voqealari tufayli milliy tuyg'u, milliy g'urur, milliy ong, milliy mafkura singari millatning o'zligini ifoda qiluvchi qadriyatlarning ahamiyati tushkunlikka yuz tutdi. Bunday sharoitda milliy o'zlikni anglash emas, balki undan begonalashish hodisasi keskinlashib bordi. **Shuning uchun ham Prezidentimiz I.A.Karimov barcha bedodliklarning asl sababi bosqinchilik va zurovonlikning natijasi ekanligini o'z asarlarida qayta-qayta ta'kidlab kelmoqda: «Uzoq tariximizdan ma'lumki, xar qanday zo'ravon bosqinchilar va yurtimizda xukmron qilmoqchi bo'lgan kuchlar yovuz niyatlariga erishish uchun avvalo milliy madaniyat va an'analarimizni yo'q qilish, shu yo'l bilan bizni ma'naviy jihatdan zaiflashtirishga. kuch-qudratimizniyo'qotishga harakat qilganlar. Bu xaqiqatni xech qachon yodimizdan chiqarmasligimiz kerak».**

Biroq har qanday bosqinchiliklar va zo'ravonliklarga qaramay o'zbek xalqi o'zligini yo'qotmadi, uni asrab-avayladi va bugungi muqaddas kunlarga olib keldi.

Xalqimiz boshiga tushgan bedodliklarga chek qo'ygan mustaqillik ayni paytda, milliy uyg'onish, milliy tiklanish, milliy o'zlikni anglash uchun cheksiz imkoniyatlarni vujudga keltirdi. Binobarin, mustaqillik yillaridagi olg'a siljishlar, tariximiz va ona tilimizni qaytadan tiklashda, unitilgan udumlarimiz, qadriyatlarimizga qaytishda, dinga bo'lgan munosabatlarimizning o'zgarishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu sohada qilingan amaliy ishlar va erishilayotgan muvaffaqiyatlar bugungi kunda milliy o'zlikni anglash borasidagi muammolarni hal etishda muhim ahamiyatga egadir.

Milliy o'zlikni anglash shunchaki orzu-istak bilan amalga oshmaydi. Buning uchun mustaqillikka erishishning uzi kifoya qilmaydi. Milliy o'zlikni anglash uchun ma'naviy qadriyatlarni qayta tiklash, uning imkoniyatlari va afzalliklaridan samarali foydalanish, ma'naviy -ma'rifiy sohadagi muammolarni hal eta borish ham talab qilinadi.

Bugungi kunda milliy o'zlikni anglashning eng dolzarb masalalaridan biri-bu Vatanimizning haqqoniy tarixini yaratishdan iborat. Binobarin, Prezidentimiz I.A.Karimov juda to'g'ri xulosa qilganidek, «O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Inson uchun tarixdan judo bo'lish - hayotdan judo bo'lish demakdir».

Tarix har bir xalqning xayoti va turmushi o'tmishda qanday kechganligi, u jahon sivilizatsiyasida qanday o'rin egallaganligi haqida ma'lumot beradi. SHuning uchun ham o'zligini anglamoqchi bo'lgan xalq va millat uchun o'z tarixini bilishdan muhimroq vazifa yo'q.

Millatning o'zligini anglashda uning o'z tiliga ega bo'lishi muhim ahamiyatga egadir. Til orqali xar bir millat o'zligini anglaydi va anglatadi. Tilidan judo bo'lgan millat o'zligini anglashdan ham judo bo'ladi. SHuning uchun ham bosqinchilar o'z xukmronligining dastlabki kunlaridanoq erli aholining tilini kamsitishga va kelajakda

uni yo‘q qilishga o‘ringanlar. O‘zbekistonda faqat CHor Rossiyasi generallari emas, hatto sho‘rolar hokimiyati ham o‘zbek tilini sun’iy ravishda cheklab qo‘yish, uni muomaladan asta-sekin siqib chiqarish siyosatini ochiq-oydin amalga oshirganligi bunga aniq misoldir.

Bugungi kunda mamlakatimizda milliy o‘zlikni anglashning dolzarb muammolaridan yana biri milliy qadriyatlarni-xalqimizning asrlar davomida shakllangan va xayotining mazmuniga aylanib kelgan urf-odatlar, rasm-rusumlari, an‘analarini qayta tiklashdan iboratdir. Mustaqillik yillarida bu sohada bir qator muhim o‘zgarishlar amalga oshirildi. Navro‘z, Ro‘za va Qurbon hayitlarining qaytadan tiklanishi, o‘tmish ma‘naviy merosini o‘rganish borasidagi ishlarning boshlab yuborilganligi o‘zbekona to‘ylar yoki ma‘rakalarning o‘tkazila boshlaganligi, xalqimizning dunyoqarashida bo‘layotgan o‘zgarishlar milliy o‘zlikni anglashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Xalqimiz tomonidan o‘tmishda ardoqlab kelingan va ular hayotining mazmuniga aylangan xilma-xil urf-odatlar, rasm-rusumlar, an‘analarni qayta tiklash milliy o‘zlikni anglashdagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu omildan amalda foydalanish milliy mafkuraning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz I.A.Karimov «Muloqot» jurnali muhbirining savollariga bergan javoblarida bu omilning milliy mafkurani shakllantirishda va shu asosda milliy o‘zlikni anglashdagi ahamiyatini quyidagicha juda aniq qilib ta’riflab bergan edi: «Milliy mafkura, avvalombor, o‘zligimizni, muqaddas an‘analarimizni anglash tuyg‘ularini, xalqimnznning ko‘p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo‘yilgan oliy maqsad va vazifalarni qamrab olishi shart».

Milliy o‘zlikni anglash har bir kishida vatanparvarlik xissini uyg‘otadi. Milliy o‘zligini anglamagan inson Vatanni sevis, unga mehr bilan munosabatda bo‘lishi mumkin emas. Har bir inson o‘zligini qanchalik ko‘p va qanchalik chuqur anglab borsa, bu unda vatanparvarlik xissasini shunchalik ko‘p oshib borishiga sabab bo‘ladi.

Xalqparvarlik insonparvarlik tuyg‘ulari ham milliy o‘zlikni qanchalik anglash bilan chambarchas bog‘liqdir. Milliy jihatdan o‘zligini anglamasdan turib, boshqalarga bo‘lgan munosabatda samimiylikka erishib bo‘lmaydi. O‘zini va boshqalarni hurmat qilish uchun har bir kishi o‘z millatining hayoti, tarixan shakllangan ong yaxshi fazilatlaridan xabardor bo‘lmog‘i lozim. Unda bunday fazilatning shakllanishi milliy o‘zlikni anglashning muhim jihatlaridin biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Milliy o‘zlikni anglash har bir kishida milliy iftixor hissini kuchaytiradi. O‘z Vatandan faxrlanmaydigan, uning muvaffaqiyatlaridan ruhlanmaydigan kishi milliy o‘zlikni anglashdan begonadir. Binobarin, milliy o‘zlikni anglash milliy iftixor hissi bilan chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Bu boqiylikni folklor-etnografik ansambllar tomonidan keng qo‘llanilayotgan milliy libos, bezak va taqinchoqlarimizda ham ko‘rish mumkin. O‘tmishdan meros bo‘lib kelgan ko‘xna liboslarni saqlash va milliy xotirani yo‘qotmaslik maqsadida barcha jamoalar ijro jarayonida o‘z hududiga xos milliy liboslardan keng foydalanadilar. Qadimiy etnik turmush tarzi bilan bog‘liq urf-odat, marosim va

udumlarni milliy libos, xalq amaliy san'ati an'analarini qo'llagan holda sahnaga chiqadilar. Bu esa tomoshabinlarga milliy ruh baxsh etib, ularning ma'naviy barkamollashuvida xizmat qiladi. Istiqlool sharofati tufayli ko'hna libos, bezak-taqinchoqlarimizdan foydalanish bu kungi avlodlarimizga qadimdan qanday bo'lsa, shundayligiga namoyish etish imkoniyati yaratiladi. Bizning vazifamiz milliy g'ururimiz bo'lgan bu noyob merosni tiklab, kelajak avlodga qoldirishdan iborat. Demak, milliy o'zlikni anglash-mavhum tushuncha emas, balki inson faoliyatining muhim jihatlaridan biri bo'lib, uning ma'naviy kamolotga erishuvida muhim ahamiyat kasb etadi.

2-MAVZU: QADIMGI DUNYO KOSTYUMI.

Reja:

1. Qadimgi dunyo san'atiga umumta'rif
2. Qadimgi Misrning geografik joylashuvi.
3. Qadimgi podsholik kostyumi
4. O'rta podsholik kostyumi.
5. Yangi podsholik kostyumi.
6. So'nggi podsholik kostyumi
7. Old osiyo kostyumlari
8. Eron naqshi va kostyumi

Afrikaning Shimoliy-sharqida, Nil daryosining quyi vohasida, bugungi Misr Arab Respublikasi yerlarida eramizdan avvalgi VI ming yilliklarda bir qancha qabilalar yashagan. Eramizdan avvalgi 4000 yillikda bu yerda yer yuzida birinchi sinfiy jamiyat shakllana boshlagan.

Qadimgi Misr davri 5 ta podshoxlik davriga bo'linadi:

1. Ibtidoiy jamoa tuzimini inqirozi va I-podshoxlikni paydo bo'lishidan III-dinastiyaning paydo bulishigacha – ya'ni er.avv. 4000-yillikni o'z ichiga oladi.
2. Qadimgi podshohlik III-IV dinastiya (er.avv. 3000-2300 yillar).
3. O'rta podshohlik XI-XII dinastiya (er.avv. 2100-1800 yillar).
4. Yangi podshohlik XVIII-XX dinastiya (er.avv. 1600-1100 yillar).
5. So'nggi podshohlik XXI-XXXII dinastiya (er.avv. 1100-332 yillar).

Qadimgi Misr san'ati tarixi – shu davlatni paydo bo'lishidan (er.avv. 3-ming yillikni boshlanishidan) uni Makedonskiy tomonidan bosib olgan davrgacha

tushuniladi. Bu davrda Misr san'ati va me'morchiligi shakllandi, rivojlandi va gullab yashnagan davrlarni boshdan kechirdi.

Qadimgi Misr san'ati o'z tarixiy taraqqiyoti davrida tasviriy, amaliy, haykaltaroshlik va dizayn san'atini va badiiy adabiyotni durdona asarlarini yaratdi.

Adabiyotda: «Sinuxetta haqida qissa», «Ikki aka-uka haqida», «To'g'rilik va egrilik haqida», «Halokatga uchragan karabl» kabi asarlar yaratildi.

Miloddan avvalgi turtinchi ming yillikning oxirlarida Kadimiy Misr yirik markazlashgan kuldorlik mamlakati bulib, davlatni fir'avn boshkargan. Uning xukmronligi cheksiz edi. Misrliklarning tasavvurida fir'avn Xudoning yerdagi soyasi xisoblangan. Koxinlar (din ruxoniylari) fir'avnning cheksiz xukukini ximoya kdlb, ijtimoiy tengsizlik va zulmga imkon yaratishgan.

Nil daryosi vodiysining tabiiy sharoiti Kadimiy Misr xujaligining rivojiga sabab bulgan. Misrliklar, asosan, dexkonchilik, chorvachilik va xar xil xunarmandchilik (tukuvchilik, zargarlik, kulollik) bilan shurullanganlar. Mamlakat axoliey xar xil tabakalardan, ya'ni kuldorlar, aslzodalar, shaxarliklar, erkin dexkonlar va kullardan iborat edi.

Tabiat kuchlariga sig'inish va afsonalar Misr madaniyatining manbai bulgan. Odamlar kuyoshga, oyga, yerga, suvga, xayvonlarga (timsoxga, chiyaburiga, sigirga, kal-xatga, ilonga, kunrizga va boshkalarga), usimliklarga sirinishgan. Din mamlakat xayotining barcha tomonlari-ga ta'sir etgan. Jumladan, san'atda, odamlarning estetik tasavvurida katta rol uynagan. Iloxiylashtiril-gan narsalar doimo ma'no timsoli bulgan. Misol uchun, moviy nilufar — serxosillikni va abadiylikni bildirgan, ilon — saltanat belgisi bulgan.

Tasviriy san'at (devoriy tasvirlar) ramziy va chizmalı bulgan. Xususan, odamlar tasviri xam chizma shakl shartli ifodalangan. Devoriy tasvirlar va xaykal-larda ularning komati, turishi, ishoralari konunlash-tirilgan edi. Kadimiy misrliklar baland buyli, keng yelkali, beli va buksasi tor, ozrin bulishgan. Ayollari esa xushruiy, nafosatli, kelishgan, yuzlari va bodomsi-mon kuzlari chiroyli bulgan. Tanikli sharkshunos olim G.Erbesning yozishicha, — "ularning tomiriga bir tomchi xam chet elliklar koni kushilmagan, odamlarining tana terisi korachadan kelgan, SORLOM


yuzlari kizil, kirra burun, keng peshonali, kaldirroch koshli, tim kora sochli bulgan. Bilaguzuklar bilan bezatilgan kul va oyoklari guzallik timsollari bulgan" (G. Erbes. Uarda. M., Mir, 1965).

Me'morchilik misli kurilmagan yuksak darajaga erishgan edi. Misr exromlari, ibodatxonalari, shaxarlari xozirgi zamongacha odamzodni xayajonga soladi, ularning kup sirlari xaligacha yechilmagan.

Adabiyot, musika, rake, tasviriy san'at xam yuksak darajaga erishgan edi.

Exromlardan topilgan namunalar yordamida dekorativ- amaliy san'at buyumlari bilan tanishishimiz mum-kin. Ularning barchasi yuksak did bilan yaratilgan va xozirgacha insonni xayratda koldiradi.

Misr — zigirning vatani xisoblanadi. Nil daryosi vodiysining tabiiy sharoitlari ushbu usimlikni usti-rishga kulay bulgan. Misr tukuvchilarining maxorati misli kurilmagan darajaga erishgan edi. Usha zamon zi-rir tola matosining tashki kurinishi va xususiyatlari turrisida xozirgacha saklanib kolgan mato namunalari yordamida tanishish mumkin. 1sm² shunday gazmolda 84 tan-da va 60 arkok iplari utkazilgan; 240 m juda ingichka va xattoki kuzga kurinmaydigan xom ipning vazni 1 g edi. Tukuvchi bunday ipni fakat barmoklari bilan sezardi. Misrning zirir tola matosining yupkaligi tabiiy ipak matolardan kolishmasdi. 5 kavat zirir tola gazlamadan tayyorlangan kiyim ostidagi tana anik kurinardi.



1-rasm. Misr nakshi.

Matoning faktu rasi xam xar xil bulgan. Yangi Podshoxlik davrdagi tursimon, yaltirok munchoklar va tilla kashtalar bilan bezatilgan gazmollar odamda unu-tilmas taassurot koldiradi.

Matolarning ranglari rangbarang bulgan. Rang tanlash tasodifiy bulmagan Zangori rang — Nil daryosi (suv) va osmonning; sarik rang — kum va yerning; yashil rang — usimlikning; kizil — kuyoshning timsoli xisoblanardi; kora rang bilan esa tasvirning chegarasi chizilardi.

Nakshda, asosan, kuyosh nurlari, geometrik shakllar (yul-yul, ilon izi) va stilizatsiyalangan usimliklar va xayvonlar tasvirlanar edi (1-rasm).


Misr nakshining tekisligi, osoyishtaligi, vazminligi uziga xos xususiyatlarga ega edi.

KADIMIY PODShOXLIK KOSTYuMI

(MILODDAN OLDINGI 2000—2400 YY.)

Bu davrda, asosan, erkaklar fakat bir kiyim — peshband "*sxenti*"ni kiyganlar. Ular shakli turt burchak yoki trapetsiyasimon bulib, ulchamlari kar xil edi. *Sxenti* belga ingichka charm kamar yoki tasma bilan biriktirilardi. *Sxenti* gavdaning orkasida burmalanardi, oldida esa kator ritmik taxlamalar kilinardi. *Sxentining* ustidan yoki tananing ustiga turt burchakli peshband kiyishgan. Boylar kuyimi zigir tolali matodan, kullarniki esa daral teridan kilinardi. Fakat fir'avn, vazirlar, koxinlar va boy yer egalarining kiyimlari bezatilar edi.

Fir'avnning saltanat belgisi ilon "*urey*" va kal-xat bilan bezatilgan toj edi. Uning ikkinchi bosh kiy-imi "*plat*" bulgan. U trapetsiyasimon shaklli bulib, yul-yul matodan tikilar edi, peshonasida esa tor tasma yoki metall chambarak bilan max,kamlanardi.



2-rasm. Mertseger ma'budasi. Egnida gavdasiga yopishib turadigan kalaziris.

Buyinga takiladigan yumalok marjon yoka yerdagi tur-mush manbai — kuyosh ramzini ifodalardi. Yoka bir necha kavat yelimlangan matodan tayyorlanib, tasvirlar bilan



3-rasm. Izida Ramzes va uning urlini kabul kilayapti. Amen-xer Xopshefnig (XX sulola) mak,barasidan devoriy tasvir. Malika-lar vodiysi, Fiva. Yangi Podshoxlik fir'avnlarning saroy arosimlari uchun kiyim (erkaklar, ayollar va bolalar kostyumi).

bezatilardi yoki tursimon tukilib, kimmatbaxo toshlar bilan bezatilardi.

Chupon xassasi va sun'iy oltin sokol ibtidoiy kabi-lalardan kolgan ramziy belgidir. Sokolni tasma yorda-mida kuzoynakga uxshatib kulokka maxkamlanardi. Fir'-avnning sokolida xam "urey" kilinardi.

Misrliklar sochlarini butunlay olib tashlab, bosh-lariga usimlik tolalaridan yoki jundan yasalgan parik kiyishardi. Bu pariklar xam bosh kiyim xisoblanib, boshni issikdan saklardi. Parikning katta-kichikligi va uning shakli shaxsning ijtimoiy xolini ifodalardi. Yirik yer egalari bir necha kokildan iborat bulgan parik kiyishardi, mayda yer egalari va kullar esa kichik parik kiyishgan.

Koxinlarning kiyimi kimmatbaxo kamar bilan beza-tilgan. Ibodat kilish paytida ular koplon terisini yoki kalxat va boshka nikoblarni kiyishgan.

Ayollar kiyimining shakli oddiy bulgan. U ikkita turt burchak matodan tikilgan kuylak "*kalaziris*" edi (2-3-rasmlar). Kalaziris kukrakning pastidan boshlanib, tovongacha yetardi va bitta yoki ikkita keng tasma yorda-mida yelkada ushlanardi. Bu kiyimni barcha ayollar, xat-toki fir'avn oila a'zolari va kullar xam kiyishgan. Ijtimoiy farki fakat matoda bulgan: boylar — yupka gazmoldan, kullar va dexkonlar esa daral matodan kiy-ganlar.

Bu davrning oxirida kiyimlar shakli uzgara boshlaydi. Yangi, mukammalrok sxenti paydo buldi. Burma-lar va plissirovka bilan bezashga intilish boshlandi. Kiyimlarning rangi kizil, zangori, yashil bulgan. Duradgorlik rivoj topishi bilan sarik, jigar rang va feruza ranglar kirdi.

Oyok kiyimi kamishdan tukilgan shippaklar edi.

O'RTA PODShOLIK KOSTYuMI

(miloddan oldingi 2400—1700 yy.)

Bu davrda viloyatlarning bir-biridan ajralib ketishi uz-uzi bilan ovora bulib kolgan xayotga olib keldi va shunga karamasdan fir'avnning xukuki birmuncha oshdi.

Bu davr san'at yodgorliklarida sxentining ustidan yupka matodan kilingan peshbandlar tasvirlangan. Ular turt burchak shaklli bulib, sal-pal burmalangandi.

Ayollarning kiyimi erkaklarnikiga uxshash bulib, bur-malari xali bir xil, didsiz kilingandi.

Oddiy axolida oddiy sxenti va kalaziris saklanib kolgandi.

Yangi podshoxlik kostyumi

(miloddan avvalgi 1580 - 1090 yy.)

Bu davr misrliklarning giksosslardan ozod bulganligi bilan farklanadi. Keng tashki savdo ichki bozorda yangi noma'lum xashamatli narsalarning paydo bulishiga va san'atning rivojlanishiga sabab buldi.

Kiyimda sinfiy fark, oldingidan xam kuprok sezilardi. Aslzodalar va koxlnlar kiyimi matosining yulkaligi bilan, tilla va sirlangan bezaklar, serburmalar

va plissirovkalar bilan farkanishi bilan birga xarir bulgan ip va zirir matolardan tikilgandi. Xilma-xil ranglarga buyalgan matolarni sidonlik ayol kullar kashtalardi.

Shu yangiliklarning kirib kelishiga karamasdan kiyimning shakli uzgarishi joriy kilingan chegaralarda sodir bulgandi. Tor, tanaga yopishib turgan kiyimga intilish, xattoki, burmalagan kiyimlarda xam sezilardi. Shu sababdan odamlar yurgaklanganga uxshash bulgan va ularning xarakatlari yodlangandek edi.

Bu vaktida erkak va ayollar kiyimlarining bir-biriga uxshashi kayd kilingandi. Erkaklarning kiyimi plissirovka kilingan yubka va yopinchokdan iborat edi. Katta yumalok yoka — marjonni fakat fir'avn va uning oila a'zolari kiyibgina kolmay, balki, boy tabakalar xam kiyim turlari: sxenti, uch burchakli peshband va boshka koxinlik anjomlari saklanib kolgandi.

Kambaral axoli tabakalarining kiyimlari oddiyli-gicha koldi.

Ayollarning kiyimi erkaklarnikiga uxshash bulsa xam, tor kuylak kalaziris saklanib kolgandi.

Misrliklar bosib olgan Suriyadan erkak va ayollar-ning kiyimiga plashch — *naramnik* kirdi. Bu ikki bu-kilgan turri turt burchak shaklli matodan tikilgan va boshi uchun kesim kilingan, yoni tikilgan uzun kiyim edi.

Askarlar charmli peshband va kukrak pech kiyishgandi.

Misrliklar oyok kiyimi juda oddiy bulgan. Bu charm yoki kamishdan ishlangan shippak edi.

Ularning kostyumlarida xar xil bezaklar bulgan: kul va oyok bilaguzuklari, uzuklar, marjonlar, sirralar, tilla va sirdan yasalgan tillakoshlar va b. Kambarallar esa chinni pasta va sirlangan loydan yasalgan bezaklarni takishgan.

Erkak va ayollarning bosh kiyimlari juda xilma-xil va murakkab bulgan. Ularning. shakli va bezagi shaxs-ning ijtimoiy xolini ifodalardi.

Ayollar yuziga pushti-kizil yorupani surgan, kosh va kipriklarini koraga buyashgan. Erkaklar esa kipriklarini yashil rangga buyar edilar. Kul va oyok tirnoklarini esa maxsus usimlik (*genna*) bilan KIZRISH sarik rangga buyar edilar.

Misrda paydo bulgan badiiy elementlar keyinchalik boshka madaniyatlarga xam ta'sir etib, rivojlanib, Ovrupo kostyumiga xam kirgan va xozirgi zamongacha saklanib kolgan.

Nazorat savollari :

1. Kadimiy Podshoxlik kostyumidagi gazlama, rang, nakshlari kanaka ?
2. Urta Podshoxlik kostyumidagi rang, nakshlari kanaka ?
3. Kadimiy Misrning sinfiy jamiyati
4. Kadimiy Misr kostyumlari nimaga asoslangan.

3-MAVZU: QADIMGI VA FEODAL SHARQ KOSTYUMI.

Reja:

1. Qadimgi va feodal Sharq kostyumiga umumta'rif
2. Qadimgi Hindimton badiiy madaniyati
3. Qadimgi Hindimton kostyumi
4. Qadimgi Xitoy badiiy madaniyati
5. Qadimgi Xitoy kostyumi.

Qadimgi hindiston sivilizatsiya o'lkalaridan biridir. Qadimgi hindiston olamga "Moxobxorot", "Ramayana" kabi epik asarlarini, Kalidasa kabi buyo'q ijodkorlarni, "Panchantra"ni bergan. Qadimgi Hindiston matematika, astronomiya, tibbiyot sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishgan. Hozirgi arifmetikaga asos bo'lgan son tushunchasini ham hindlar yaratgan.

Hindiston judayam ko'p va keng madaniyatga ega bo'lib, tasviriy san'at, me'morchilik, ilm-fan, tibbiyot sohalari yo'qsak darajada ekanligini ko'rishimiz mumkin. Madaniy urf -odatlarning avloddan avlodga o'tib kelishiga asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladigan milliy bayramlardan karvachot, holi kabilarni misol keltirish mumkin.

Hindiston judayam ko'p va keng madaniyatga ega bo'lib, tasviriy san'at, me'morchilik, ilm-fan, tibbiyot sohalari yo'qsak darajada ekanligini ko'rishimiz mumkin. Madaniy urf -odatlarning avloddan avlodga o'tib kelishiga asosiy

omillardan biri bo'lib xizmat qiladigan milliy bayramlardan karvachot, holi kabilarni misol keltirish mumkin.

Holibayrami

Holi bayrami oy to'lgach, ikki kun davomida nishonlanadi. Dastavval yovuz ruhlar olovda "kuydirilgach" ertalab chiroyli tadbir boshlanadi. Odamlar ko'chaga chiqib, bir-birlariga qizil, yashil, sariq, ko'k rangli suvlarni sepadilar, turli poroshoklarni otadilar. Rangli pufakchalar hattoki, mashinalar oynasiga ham sachraydi. Agar bo'yoq kimningdir kostyumiga tegsa, hafa bo'lishga haqqi yo'q. U ertasi kuni ko'chaga chiqmay qo'ya qoladi. Shu bois, o'sha kuni bayramga yangi, hashamdor libos kiyishning hojati yo'q.

Hind kostyumidagi shakl – bu din bilan yuqori darajaga ko'tarilgan go'zal va pok tana; u hayot davomchisidir. Uni berkitish kerak emas, chunki tana shakli har tomonlama kamolot cho'qqisi deb hisoblanardi. Tana barkamol edi va unga faqat birorta narsa qo'shilishi mumkin edi.

Ijtimoiy tabaqlar ajaralib turish uchun zargarlik taqinchoqlaridan foydalanishardi. Ularning miqdori va bahosi shaxsning tabaqa belgisi sanalardi. Braxmanlarning kiyimlari oppoq harir matodan bo'lib, qo'shimcha ko'p bezaklar taqilardi.

Hind milliy kostyumi

Hind kostyumidagi shakl – bu din bilan yuqori darajaga ko'tarilgan go'zal va pok tana; u hayot davomchisidir. Uni berkitish kerak emas, chunki tana shakli har tomonlama kamolot cho'qqisi deb hisoblanardi. Tana barkamol edi va unga faqat birorta narsa qo'shilishi mumkin edi.

Ijtimoiy tabaqlar ajaralib turish uchun zargarlik taqinchoqlaridan foydalanishardi. Ularning miqdori va bahosi shaxsning tabaqa belgisi sanalardi. Braxmanlarning kiyimlari oppoq harir matodan bo'lib, qo'shimcha ko'p bezaklar taqilardi.

Induizm dini falsafasi bo'yicha hamma narsa juda yaxshi va kiyimni o'zgartirishga hojat yo'q. O'zing kamolga yetgin, ortiqchalik- bu o'tkinchilik, deb hisoblanilardi. Bu kiyimning yangi shakllarining paydo bo'lishiga yo'l qo'ymasdi. Eng qadimiy tasvirlangan kiyim shakllari (mil.av uchinchi ming yil) belga va yelkaga o'ralgan tikilmagan mato bo'laklari edi. Yelka kiyimi mato parchasidan iborat bo'lib, chap yelkaga, tashlanardi va o'ng qo'ltiq ostidan o'tkazilib, tanaga o'ralardi. Bel kiyimi esa hozirgi DXOMURSGa o'xshash ariylar olib kelgan kiyim edi. Kostyumning asosiy elementi "nivi" edi. Bu belga o'ralgan va qorinda taxlam qilingan tikilmagan mato bo'lagi edi. "Nivi" so'zi sanskrit (qadimiy hind tili)dan kelib chiqib, hozirgacha ayollar kiyimida saqlanib qolgan.

Tananing yuqori tomoni yopinchiq "upavasa" va "paridxana"ga o'ralgan. Ushbu kiyim elementlari erkak va ayollar kiyimining asosi bo'lgan edi.

Miloddan avvalgi 320-yildan milodning 320-yiligacha bo'lgan davr kostyum evolutsiyasida muhim rol o'ynadi. Bu davrda bichilgan va tikilgan kiyimlarning asoslari mavjud bo'lgan edi. Markaziy Osiyodan kelgan bosqinchilar (xunlar, saklar, kushonlar) yopishib turadigan, tunukasimon bichilgan "joma"simon yelka kiyim va etikka kirgizilgan, yor, tizzasidan tepaga sal kengaygan "pay-joma"simon ishton edi. Lekin bu xil kiyim hihdlarga to'g'ri kelmagan edi. Ular kiyimga yangi shakl va xususiyat beishdi- yelka kiyimi yupqa zarli iplar bilan to'qilgan muslindan qilinib, belida belbog' bilan burma hosil qilib bog'lanardi. Bel kiyimi esa "nimdxoti" –yumshoq, tiniq, yo'l-yo'l matodan qilinardi. Bu davrda ham juda ko'p taqinchoqlar taqilardi. Erkaklar ustki kiyimi "adxivasa" – bichilib tikilgan va zar bilan kashtalangan ko'ylak bo'lgan.

Hind erkaklar kostyumi

320-1100 yillar hind kostyumining barqarorlashgan davri deb hisoblanardi. Bu davrda erkak va ayollarning hamda mahalliy kiyimlarning ajralishi yuz bergandi. Aynan shu davrdan musulmonlarning hindistonga kirib kelishi san'atning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Yangi din – islom mahalliy urf-odatlarini o'zgarishiga olib kelgandi.

Agar oldingi davrda etnik omil kiyimning asosi bo'lsa, (tikilmagan-mahalliy aholiniki, tikilgan – chet ellarniki), musulmonlar kelgandan so'ng diniy omil birlamchi bo'lib qoldi. Bu davrdagi kiyimlar bilan miniaturadan tanishib chiqsa bo'ladi. Hindlarda odatdagi tikilmagan kiyimlar (bel kiyimi – dxoti va yopinchiq dupatta) saqlanib qolgandi, islom diniga kirganlar musulmonlar kiyimini kiya boshladi. Lekin musulmonlar kiyimi chapdan o'ngga o'ralsa, hindlar esa o'ngdan chapga o'rashardi. Sharf yoki yopinchiqni yelkaga tashlashardi yoki boshga o'rashardi.

Erklarning bel kiyimi – ya'ni ishtoni, “payjoma” ikki poy va rombsimon og'dan iborat bo'lgandi. Ishtonning tizzasidan tepa tomoni keng bo'lgan, pasti esa yopishib turardi. Ishtonning tepa tomoni uzunroq bo'lgani uchun uni bilaguzuk kabi ko'ndalang taxlamlari hosil bo'lardi, shu sababdan uning nomi “churidara” (“churi” - bilaguzuk) deb atalardi. Ishton ko'pincha oq ip gazmoldan tikilardi. Eng ko'p tarqalgan erkaklarning yelka kiyimi – “ko'rta” – ip gazlamadan tikilardi. Ko'ylak yaxlit bichilgan stan, yon qo'shimchalardan, alohida bichilgan yeng va hishtakdan iborat edi. Tik yoqa omuziga planka tikilardi, yoqasi esa yo'q edi.

O'n to'qqizinchi asrda inglizlar hukmdorligi davrida mahalliy kiyimga bir nechta o'zgarishlar kiritildi. Ingliz harbiy kiyimi hind kiyimi bilan aralashgandi. “Syurtuk” va “pilotka” yigirmanchi asr erkaklari mahalliy kiyimiga aylandi. Ammo bel kiyimi dxoti bo'yicha qoldi. Ayollar kiyimi o'zgarmasdan, burungi holida qoldi.

Ayollar esa yot ko'zdan saqlanish uchun sharf bilan yuzlarini berkitishardi keyinchlik, o'n to'qqizinchi asrda, u “sari”ga aylandi. Islom dini ta'sirida ayollar kichkina, tor, yopishib turadigan, bichilgan, orqasida tugmalanagan koftasimon kiyim “choli”ni kiyishadigan bo'ldi.

Shunday qilib, bichilgan va tikilgan kiyim etnik to'siqlardan o'tim kostyum asosi bo'lib qoldi. Ammo odatdagi bo'ksaga o'ralgan bog'ich kambag'allarning kiyimiga aylandi. Bu davrda liboslar kengroq, aniq shaklsiz va uzunroq bo'lgandi. Keyin yana qisqara boshladi. Bel kiyimi shalvar edi(turkiya shalvarining xili edi).

Yupqa va qimmatbaxo matodan qilingan ayollar ishtoni “sutxni” deb, erkaklarniki esa “sutxna” deb atalardi.

Yelka kiyim – “kamis” (avval uni “ko’rta” deb atashardi hozirgi vaqtda ko’rta deb erkaklar ko’ ylagini atashadi). Kamisning old va orqa bo’laklarini alohida bichilardi, yelka qismi qiya bo’lgandi, belida vitichkalar qilinardi. Kamisning uzunligi bo’ksa o’rtasidan boldirning o’rtasigacha bo’lishi mumkin edi. Beldan pastroq yon choklarda kesimlar qlingandi. Kamisni old yoqa omuzi uchburchak shaklda bo’lib, orqasida kichkina tik yoqa bo’lgan edi. Ko’ylak turli naqshli ipak matodan qilinardi.

Kostyum bezaklari

Bezakar hindlar kiyimida hozirgacha, ayniqsa ayollarda, muhim rol o’ynaydi. Ular faqat bezak belgisi emas, balki ko’proq ijtimoiy rol o’ynaydi. Hindistonda bezak taqmagani birorta ayol yo’q (bevalardan tashqari).

O’rta va past tabaqali ayollar barcha taqinchoqlarni doimo taqib yurishardi. Zargarlik buyumlari xilma-xil bo’lgan: ziraklar, marjonlar, uzuklar, bilaguzuklar, to’qalar, kamarlar sochiga va peshonasiga taqadigan taqinchoqlar va boshqalar. Ular chig’anoqdan, fil suyagidan, marjondan, marvariddan, donlardan, nozik, fayans rangli shisha va oynachalardan qilinardi. Oltin va qimmatbaxo toshlar ham juda ko’p qo’llanardi.

Qo'lga taqiladigan taqinchoq.



Qadimgi Xitoy kostyumi.

Xitoy madaniyati 4000 yil ilgari vujudga kelgan. Uning madaniyati Misr madaniyati bilan raqiblik qilishi mumkin. Agar Misr madaniyatidan faqat yodgorliklar qolgan bo'lsa (exomlar, ibodatxonalar va san'at asarlari), Xitoy madaniyatining vasiyatlari esa hozirgi zamongacha o'zgarmasdan qoldi (til, yozuv, musika va boshqalar).

Xitoyda feodal tuzumi miloddan avvalgi V—III (ayrim ma'lumotlar buyicha XI—VIII) asrlarda tashkil etilgandan to XIX asrning yarmigacha o'zgarmasdan qolgan edi. Xitoy madaniyati rivojlanishida qo'shni mamlakatlar sivilizatsiyasining ta'siri deyarli bo'lmagan edi. Xitoyning mayda viloyatlari Bogdixanning xukmdorligiga sig'inishardi. U o'zini Osmon o'gli, mamlakatni esa — Dunyoviy (Djungo)deb xisoblardi.

Xitoyda davlat xizmati, saroy qoidalari, xayot, kiyinish odati davlat tomonidan qat'iy konunlashtirilgandi.

Xitoyliklarning dunyoqarashiga va tafakkuriga bir necha falsafiy oqimlar va dinlar ta'sir etgan. Miloddan avvalgi birinchi ming yillikda mavjud bo'lgan falsafiy oqimlardan biri **“daosizm”** (dao tszya) edi. Uning asoschisi Laotzi bo'lgandi. Uning asosiy fikri — dao (yul) ta'limoti bo'lib, bu ta'limotga ko'ra Koinotning o'zidan vujudga kelishi, rivojlanishi va barbod bo'lishining azaliy, tabiiy va umumiy qonuni bor

Konfutsianlik (ju tszya) — etik-siyosiy ta'limot. Uning asosida ajdodlarni xurmat qilish turardi. Bu falsafiy oqim keyin dinga aylandi.

Keyin O'rta Osiyo orqali Xitoyga asosiy din bo'lib **buddizm** kirib keldi.

Kadimiy Xitoy falsafalari tabiatning qarama qarshiligini (**Yan** — yorug'lik, **Inb** — qorong'ulik) kurashda emas, balki muvozanatda, osoyishtalikda, qo'shilishda tan olgan edi. Ularning tasavvurida dunyo tuzilishining asosida **erkak** — **Yan** va **ayol** — **Inb** omillarning ijodiy o'zaro aloqasi bo'lgan.

“I tszin” (o'zgarishlar kitobi) kadimiy xitoyliklarning dunyo tushunishida ma'no so'z bilan emas, ramziy ishoralar bilan ifodalanardi.

Dunyo tuzilishi dialektikasining **grafik ramzlari**:

uzluksiz chiziq erkak kuchi — Yanni aks ettiradi;

uzlukli chizik ayol kuchi — Inni aks ettiradi.

Yan o'z moxiyatini birlikda, In — ko'plikda kursatadi.

Barcha dunyo voqealari erkak va ayollar kuchlarining o'zaro aloqasi natijasida bo'lgani uchun, ularning xammasi oddiy belgili chiziklarning birikmalari bilan ifodalanishi mumkin:

erkak kuchining mutlaqo xukmronligini barbod bo'lish chegarasida, ulug' Yan, Yoz;

ayollar kuchining mutlak o'xukmronligini barbod bo'lish chegarasida, ulug' In, Qish;

erkaklar kuchining o'sish ramzi, yosh Yan, Baxor;

-ayollar kuchining o'sish ramzi, yosh Inь, Kuz.

Qorong'ulik va yorug'lik — bu bir-biriga intilayotgan kuchlar, ular bir-birining o'rniga keladi. Yer bilan Osmon ijodiy xarakatda qo'shilganda, shu sikl avjiga yetgan deb xisoblanadi. Ayni shu voqea kadimiy Xitoyning belgi ramzlari va naqshlarning asosi bo'lgan. Shu sababdan bo'lut tasmalar, to'ltinli jingalaklar, momaqaldiraq spirallar, bo'lut va chaqmoqni tugdiradigan ajdaxolar xitoy kostyumining bezagining doimiy elementlari bo'lgan. Ular qadim-qadim o'tmishdan o'rta asrlarga kelgan va hozirgi zamongacha saqlanib qolgan.

1. Geometrik shakllar ramzi.

Kadimiy xitoyliklar tasavvurida **Osmon** — **doyra** shaklda, chunki u bir chizik chegarasida berk, boshi va oxiri yo'q, va Osmonning cheksizligini ifodalaydi.

Er — **kvadrat** (4 tomon va 4 burchak), yerning chegarasi bor, shuning uchun kvadratning xar tomoni burchak bilan yakunlanadi.

Ushbu shakllar Yer va Osmonning fizik xolatining tasviri emas, aksincha, ularning fakat geometrik ishoralari va kosmik omillarining moxiyati. Shu ikkita shakllar kushimchasi san'atda va kostyumda ko'p uchraydi.

2. Son ramzlari.

“I tszin”da Osmon va Yer son ramzlari quyidagicha bo'lgan:

Osmon — 1,3,5,7,9;

Yer — 2,4,6,8,10.

Demak, unning mobaynida **toq, sonlar** — **Yanni, juft sonlar** — **Inni** ramzi bo'lgan. Osmon sonlari beshta, Yer sonlari xam beshta edi. Bu sonlar ko'shilishib **Metall-"TSzin", Daraxt-"Mu", Suv-"SHuy", Olov-"Xo"** va Yer-“**Tu**”ni yaratadi. Demak, 5 tabiiy kuchning aylanishiga ikkita asosiy sabab bo'lgandi.

9 — Yan chiziqning nomi,

3 — Yan sonning ramzi,

6 — In chizikning nomi,

1 — Osmon ramzi, chunki u bitta chizik bilan ifodalanadi,

4 — Yer ramzi, chunki u 4 chizik bilan (kvadrat) ifodalanadi.

Kostyumda shakl, son va ramz ishoralari keng qo'llangandi. Qo'shilgan doyra va kvadrat shaklli (er va osmon kushilganligini ifodalaydi) imperator bosh kiyimida 5 nefrit xar xil rangli osilchoklar kilingandi, ular 5 tabiiy kuchlarning ramzi edi. Eraklarning kiyimida tugmalar soni tok, ayollarnikida — juft kilinardi; 8 ajdaxoning tasviri erkaklar xalatining oldida bo'lsa, 9-si esa orkasida kilinardi.

4. Rang ramzlari.

Geometrik shakl va sonlar “tiliga” nisbatan rang ishoralari odamning tuyrusiga zur ta'sir etar edi. Ammo ular karama-karshi va murakkab bo'lgan. Misol uchun, agar Osmon-Yan — Koinotning yorqin omili, Yer-Inb unga kara- ma-karshi deb xisoblansa, u xolda nima sababdan Osmon qora — binafsha yoki qora, Yer — sariq rang ramzi bilan ifodalanganligini tushunish qiyin.

Ikkita omilning o'zaro aloqasi bilan tuyilgan 5 tabiiy kuch ramzlari:

yashil rang — Baxor rangi, yosh usimlik va yaproklar rangi; tabiiy kuch Daraxt-Muni moxiiyatini aks etuvchi rang; Baxor — yilning boshi; Sharq — kun chiqadigan joy, shuning uchun yashil, tirilish va yoshlikning ramzi; Yupiter sayyoraning ko'kintir-yashil rangi;

qizil rang — Yoz, Olov-Xo, Janub va Mars sayyorasining ramzlari;

o q; rang — Kuz ramzi, u paytda omborlar ok guruch bilan tuladi; kuzga tabiiy kuch metall-TSzinb mos kela- di (kayralgan bolta ^{TIRINING} rangi); bu Fap6 — uchgan, kuyosh botadigan tomoni va ulgan odamlarning ketadigan joyi (motam kiyimlari ok rangli kilinardi); Oy va Zuxra — Veneraning (“Taybo” — “buyo'q ok” — metall yulduzi) nurlari;

qora rang — Kish rangi, eng korong'i davrni, zimis- ton saltanat — SHimol rangi, yorqin emas, Merkuriy rangi, tabiiy kuch Suv-SHuyni rangi.

sariq, rang — Yoz faslining oxirgi rangi, don ekin- larning yetilishi, xosil turdiradigan tuprok rangi, tabiiy kuch Yer-Tuning ramzi, bu markaz ramzi, ya'ni Yerni; Saturn sayyorasining ramzi (dexkonchilik xudosi).

5. Usimliklar va tirik jonlarning ramzlari.

Xitoyda Osmon va Yerning antropomorfik tasvirlari yo'q. Odamlarni Osmon va Yer unchalik qiziqtirmasdan, balki ularning q'o'shilishi — nigoxi kiziktirardi. Shundan xitoyliklarning tasavvuri kelib chiqqan: *ajdaxo* — yomg'ir xukmdori, erkak moxiyati edi. Ajdaxoning bo'lutlar orasida parvoz qilib yurgani yoki to'lqinlar aro suzgani va shu vaqtda yelkasidan va buksasidan alanga chiqib turgani tasvir etilardi. Suv — uning tashki, Olov — ichki muxitining ramzi deb xisoblanar- di. SHunday qilib, ajdaxo ikki karama-karshi kuchlar- ni: Yer-Osmon va Olov-Suvning birligini kursatardi.

Alangali dur — sharsimon chaqmoqni eslatadigan momaqaldiraq siymosi bo'lgan.

Ajdaxo — kuyov ramzi bo'lgan; baqa va quyon — abadiy eleksir bilan bog'lik; ko'rshapalak — baxt, sog'lik, saxovat; xo'roz — kuyoshga sivilinish bilan bog'lik; bug'u — martabani oshirish ramzi; zog'orabaliq — muvaffakiyat tilash ramzi; anor — ko'p bola tilash ramzi; shaftoli — ko'p yil yashash istaklarining ramzi va boshkalar.

Kadimiy Xitoy kostyumining oddiy shaklining paydo bo'lishiga odamlarning xo'jalik ishlari, xom ashyo imkoniyatlari va iqlim sharoitlari sabab bo'lgandi. Tanta- nali va rasmiy kiyimlarning shakllari oddiy kiyimlardan uzlashtirilgandi. Ular, bichimi bir xil bo'lgani xolda, matosi, bezaklari va arzimlas konstruktiv farqlari bilan ajralib turardi.

Xitoyliklar kiyimlari ichki va ustki, yelka va bel kiyimlaridan iborat edi.

Elka kiyimi. Odatda xitoyliklar yelka kiyimlarining oldi ochiq bo'lgan. Ichki va ustki kiyimlarning bichim asosi bir xil bo'lgan. Konstruktiv xususiyatlari buyicha barcha kiyimlari ikki turga bo'linadi:

— birinchi turi — *Sharqiy-Osiyo* turi — tunikasimon bichilgan, old va orka bo'laklarining uzunligi teng

elkasida ikkiga buklangan ikki en matodan tikilgan kiyim edi; matoning eniga karab yengi xam bichilardi, yetmagan uzunligiga kushimcha mato bo'lagi tikilardi; Rim tunikasidan va yapon kimonosidan bu bichim stanni kultigi yumaloklanganligi bilan, U rta Osiyo kiyimla- ridan orkasida o'rta choki borligi bilan farkdanardi (113, 114-rasmlar);

— odatdagi xitoy kiyimining ikkinchi turi xam oldi ochik va orka o'rta chokli bo'lgan, lekin ularda *qiyalangan yelka choki* kilinardi; shu sababdan ularning old va orka bo'laklari aloxida bichilardi (114-rasm).

Ushbu ikki tur kiyimlarning simmetrik va asimmetrii bichimlari bo'lardi. Simmetrik bichimda old bo'laklari uchma-uch[^] bo'lgan, asimmetrii bichimda esa,

chap old kismiga kushimcha bo'lai ulanardi, ung bo'lagi iurinmas- ligi uchun ialtarok, kilinardi.

SHarkiy-Osiyo bichim turidagi simmetrii iiyimlar- ga eriai va ayollarning ichii va ustii nuylailari iira- di, asimmetrii iiyimlariga esa eriai va ayollar xalat- lari va ichii iyii bortli ioftalar iiradi.

Elia choili yiyimlarga nimchaning barcha turlari, yoni tiiilmagan simmetrii bichimli eriailar ichki kiyimi va ayollar iuiragini sikib turadigan ichii iuylagi ii- radi.

Birinchi tur iiyim bichilganda, yonining pasti sal iengaytiriladi, tor matolardan tiiilgan xalat va iof- talarining yoniga kushimcha kiyiklar tiiilardi. Stan bilan yaxlit bichilgan yengning asosiy bo'laklariga kushimcha bo'lailar tiiiladi. Yengning pastii tomoni (chok bo'la- digan joyi) tutri yenglarda gorizontal va uchiga karab torayadiganlari kiya bichilardi.

Elia iiyimning barcha turlarida yoqa umizi aylana kirkilgan; oldi kirkilgan iiii kavatli tii yoqasi bo'lgan. Etagi esa dumaloklangandi.

Barcha turli xitoy iiyimlarda farklovchi xususiyat- laridan biri — ma'lum uzunliida etagining yonlarida, oldida va orkasida yoi xamma tomonlarida iesimlari bo'lishi shart edi. Kesimlar bo'limlarning pastii to- monlarining tiiilmaganligidan xosil bo'lardi.

Xitoy yelia iiyiminining yana bir kizikarli xususiya- ti — uziga xos tugmalash usuli. Odatda, asosiy gazmol-

dan eshib shnur kilinardi va undan sharsimon tugmacha tukilardi. Ba'zan, sharsimon metall yoki shisha tugma- lar xam kullanardi. SHnurdan kilingan izmalar ung to- moniga tikilardi. Asimmetrik kiyimlarda tugmalar yoqasidan yon kesimgacha kilinardi. Odatda, erkaklar kiy- imida tugmalar soni tok, ayollarniki — juft bo'lardi.

Bashang kiyimlarning bichimi kundaliklardan fark- lanmasdi, lekin ularga kullangan matolarning sifati ancha yo'qori edi. Ayollar kiyimi, ayniksa yoshlarniki, ranglaryorkinligi, nakdn, rang-barang kashtalari va bezaklari bilan ajralib turardi. Boy ayollar koftalari- ning yok,a va chap old bo'lagi aylana kashtalangan xoshiya bilan, kambavallarniki — bir xil rangli tasma bilan bezatilardi.

Xar xil yelka kiyimlar, byol kiyimi — ishton ayollar va erkaklar kiyiminining asosi bo'lgan. SHunga e'tibor berish kerakki, yelka kiyimi xech kachon ishtonga tikib kiyilmas edi. Eng keng tarkalgan erkaklar ichki kiyimi — SHark- iy-Osiyo bichimidagi simmetrik "*duy tszinb*" yoki asimmetrii "*se tszinb*" kuylak*xanb shanb tsza*"

bo'lgan. Is- sik ob-xavoda kuylakning uzi ustki kiyim bo'lishi mum- kin edi. Boshka vaktida uning ustidan tuk rangli, astarli, paxtada kavilgan yana bitta yoki bir nechta kiyim kiyishardi. Keng tarkalغان erkaklarning ustki kiyimi SHarkiy-Osiyo bichimidagi uzun xalat "*chan pao*" edi (113-rasm). Xashamatli bezatilgan xalatlar aslzodalar va amaldor- lar uchun rasmiy kostyumning majburiy elementa edi. Kuchada va xizmatga oid joylarda xalat ustidan old bo'laklarining uzunligi teng kalta yoki uzun kofta kiyishardi. O'rta tabaqali axoli shunga o'xshagan, lekin bezatilmagan xalat va ustidan kofta yoki nimcha kiyishardi. Ko'pchilik oldida xalatsiz yurish beadablik va kambagallik xisoblanardi. Kambagal shaxarliklar va dexkonlar xalatsiz yurishardi.

Ayollar ichki kiyimining erkaklarnikiga nisbatan farki bor edi. Kadimiy Xitoy odatlari buyicha ayollar guzalligining asosiy belgisi — yassi kukrak xisoblanardi. Unga erishish uchun kizlar va ayollar kukragini uzun ip gazlamali tasma "*baoyun tyao*" bilan tarang sikib boglab quyishardi. SHu maksadda xam tanani si- kib turadigan ichki nimcha "*kanb tszyanb, kanb tszyar*"ni kiyishardi. Fakat xomilador va bola emizadigan ayollar kukraklarini boglamas edilar.

Kadimiy Xitoyda ayollar ustki kiyimi SHarkiy-Osiyo usulida turli asimmetrii bichilgan kofta "*pao*" bo'lgan. Uni uzun ishton va yubka — plaxta ustidan kiyishardi. Kofta ustidan nimcha "*bey sinb*" va tantanali marosim- larda etagi shokila bilan bezatilgan uzunrok nimcha "*sya pey*" kiyishardi. Boy ayollar koftalarining yoqasi va chap old bo'lagining etagini kashta va xoshiya bilan beza- tishardi. Kambagal ayollar koftasi bezaksiz edi yoki bir rangli tasma bilan bezatilardi. Koftani ishton ustidan kiyishardi.

Ayollar xalati "*tsi pao*" SHarkiy-Osiyoli, asimmetrii bichimli edi. Xalatning shakli tutri yoki sal tanaga yopishib gavda shaklini kursatar edi. Modaga asoslanib, ularni yengi turri, keng yoki tor, kiyalangan, uzun yoki kalta bo'lardi. Yozlik xalatlar yengsiz bo'lishi mumkin edi. Xalatlarning uzunligi tizzadan yoki tupikkacha bo'lib, yon kesimli yoki kesimsiz bo'lardi. CHap old bo'lagining borti kiyalangan, dumaloklangan va boshka shakl- larda bo'lishi mumkin edi. Xalatning ikki kavatli tik yoqasining eni urfga oid o'zgarardi (115-rasm).

Xalat "*tsi pao*"ni koftadan asosiy farki — uni uzun ishtonsiz kiyishardi.

Erkaklar yelka kiyimining ranglari kuk, kora, ok, kul rang va jigar rang, ayollar kiyimlarining ranglari yorokinrok bo'lgan.

Erkaklar va ayollar bel kiyimlari ishton "*kutsza*", yubka-plaxta "*tsyunbza*" va peshband bo'lgan (113-rasm).

Ustki va ichki ishtonlarning bichimi farklanmasdi. Ishtonlar ikki yoki bir nechta mato bo'laklaridan bichi- lardi. Ikki poycha bo'laklariga keng OF va tepasiga ok turri turtburchak shaklli mato tikilardi. Tepasi juda keng ishtonlar buksada tuk rangli ip matodan kilingan tasma yordamida maxkamlanardi. Ortikcha kengligidan oldida taxlam kilinardi. Ayollar ishtoni ogida o'rta chok kilinmas edi (yovuz rux kirmasin deb), erkaklarnikida esa o'rta chok kilinardi. Ishtonlar chuntaksiz bo'lardi.

Sovuk paytda, ba'zan bayram va tantana munosabati bilan ishton pochasi paypok, ustidan chikarilib, maxsus kora tasma bilan boilab quyilardi.

Uch faslga mos ishtonlar bo'lgan: yozlik — astarsiz, ok> kora, kuk, kul rang matodan; bakor-kuzlik — astar- li, tuk rangli matodan; kishlik — paxtali, kavilgan kilinar edi.

Ishton-paypok, "tokau" Xitoyda paydo bo'lgan. Bu aloxida, OFH biriktirilmagan, paypoksimon poychalar edi. Ular boyaich yordamida belbokka maxkamlanardi. Xozirgi davrda "tokau"ni ishton ustidan kiyishadi. Odatda, ishtonni kanop tola "bu, mabu" yoki shoyi va ip matodan tikishardi. Sovuk faslda ishton ustidan paxta bilan kavilgan ishton tokau xam kiyiladi. Ko'pincha xitoyliklar ishton poychasini tizza pasti- dan boklar edilar. Ba'zan uni *gamash "bi"* bilan tor- tib quyishardi yoki ustidan *etiksmon paypok, "va''ga* kirgizishardi.

Yubka-plaxta "shan"nn o'rta va yo'qori tabakaning erkak va ayollari kiyishardi. Uning bichimi bir xil bo'lgan: ikki turri turtburchakli matoga belbor tikilar edi (peshbandga o'xshash) va ular yordamida belga maxkam- lanardi. SHanni yon tomoni plissirovka, o'rtasi orka va old bo'laklarida kashta kilinardi (114-a, b rasmlar).

Ayollar yonlari tikilgan, yonining tepasida uchburchak kesiklari kilingan yubka kiyishardi. Kesiklar orasi- dan ichiga kirgizilgan kofta kurinardi.

Ko'pincha kofta va plaxta kiyishganda old belbokka *peshbandni* kistirib quyishardi. Uni kurbonlik maro- simlarda kiyish shart edi. Peshband odatda kizil rangli bo'lib, shaxsning ijtimoiy sharoitiga mos qilib be- zaklanardi.

Kostyumning eng muxim bo'limlaridan biri belbog "*day*" xisoblanardi (114-a, raem). Aslzodalar va amal- dorlarning boylik belgisi bo'lib, ular xilma-xil bo'lar- di. Ularning ikki turi uchrardi:

- 1) matodan kilingan ikkita izma va uzun osilinib turgan uchi bilan belbog;
- 2) charmdan kilingan va nefrit, metall yoki shox pla- stinalar bilan bezatilgan belbog-kamar.

Nefrit xalkalar va boshka bezaklar bilan tukilgan rangli *shnurlar* — “*shou*” shaxsning ijtimoiy xolini kursatardi. SHouni beliga boglashardi, uchlari esa yonida yoki orkasida osilinib turardi. Unga ba’zan kerakli foydali buyumlarni (pichok, chakmoktosh, uzuk va b.) osib quyishardi (114-a raem).

Nefritdan yasalgan *osilchotslar* “*peyyuy*” xam kiyim- ning bezagi bo’lgan, ular xam odamning ijtimoiy axvo- lini kursatardi.

Bosh kiyim va pricheskalar. Kddim zamonlarda xi- toyliklar sochlarini kirkmaganlar. Ular sochlarini tu- gunga yiyib, shpil’ka yordamida mustaxkamlab kuyar edi- lar. Bosh kiyimlarning shakllari xar xil bo’lgan. Ular- ning kiyish odatlari ovrupoliklarnikiga karama-karshi bo’lgan. Agar ovrupoliklar xurmat bilan bosh kiyimni yechsa, xitoyliklar esa kaytaga uni kiyar edilar.

Ochik xavoda yoki binoda utkaziladigan marosimlarda (uchrashuvlar, audientsiyalar, banketlar va b.) bosh kiyimni kiyish shart edi.

Kadimiy Xitoyda bosh kiyimni yechish lavozimdan ozod kilishni yoki aybiga ikror bo’lib kelishini bildirardi.

1644 yilda manjurlar bosib olgandan sung, xitoy- liklarning tashki kurinishi o’zgardi, chunki manjurlar erkaklarning peshona sochini kirkishga, orkasida kol- gan sochini esa uzun qilib urishga majbur kildilar.

Bosh kiyim voyaga yetganda kiyilardi.

Bosh kiyimda maxalliy va ijtimoiy belgilar bo’lardi. Nefritdan osilchoklar kilingan bosh kiyim fakat tantanali marosimda kiyilardi.

Xitoy ayollari odatda bosh kiyimni deyarli kiyish- masdi, fakat tantanali marosimda, ayniksa,

tuyda mu- rakkab bosh kiyim kiyilardi.

Bosh kiyimlar namatdan, muynadan va tukilgan poxol- dan kilinardi.

Bosh kiyimlarning shakli 6 kirrali, 3 kirrali, dumalok, soyabonli yoki soyabonsiz, konus - simon va b. bo’lgandi.

Oyok, kiyimlar. Matodan, kanop tolasidan yoki poxoldan tukilgan yengil *tufli* “*TSzuy*”, keyinrok“/sh” deb atalgan oyok kiyim keng tarkalgan edi (116- rasm). Matodan tukilgan *tuf- lining boshligi* “*semyanb*” ko’pincha nakshli kilinardi.

Kalin tagligi bir necha kavat yelimlangan va tikilgan koyaoz- dan ishlanardi. CHarmdan ki- lingan tufllilar xam uchrab turardi.

Tantanali tufli “si” ikki kavat xoshiya bilan bezatilardi. Tovonining yon tomonlari yanchilgan chiganok toshdan kilingan buyok bilan bezatilardi. Uchi esa, kushimcha yelkansimon kushimcha bilan bezatilardi.

Yogingarchilikda yogochdan kilingan *skameykasimon*, tepasi yoʻq *shippak “tszi”* kiyishardi. Matodan kilingan tasma yordamida tszi oyokka boglanib quyilardi.

Kuchmanchilar taʼsirida Xitoyga *charm etik “syue”* kirib keldi, shular katorida matodan kilingan etik xam boʻlgan.

TSin davrida saroyda uchi sal kutarilgan ipak yoki charm etik kiyishgan. Fukaro amaldorlar kvadrat tumshukli etik kiyishardi. Bu Osmon va Yerning jismoniy va intellektual kuchlarining karama-karshiligini kursatardi.

Etik kunji — “*syuetun*”dan koʻpincha chuntak sifatida foydalanar edilar.

4-MAVZU: EVROPA ANTIK DAVRI KOSTYUMI.

Режа:

1. Антик дунё санъати
2. Қадимги Юнонистон санъати
3. Қадимги Юнон костюмлари
4. Қадимги Рим санъати
5. Қадимги Рим костюмлари

Антик дунё санъати. Қадимги дунё санъатининг янги босқичи Қадимги Юнонистон ва Рим давлатлари билан боғлиқ. Милодан аввалги 3000 йиллардан то янги эранинг V асригача Европанинг жанубий шарқий томонларида, Ўрта Ер ҳавзаси ҳамда Қора денгиз соҳилларида вужудга келган қулдорлик давлатлари бўлган. Булар ичида айниқса Юнонистон ва Рим давлатлари тарихда бетакрор из қолдириб кейинги Европа ва жаҳон халқлари санъати ва маданиятига кучли таъсир этган. Шунинг учун ҳам биз қадимги Европа санъатини ўрганганда аввало ана шу халқлар санъати билан танишамиз. Бу халқлар яратган санъатни одатда антик санъат деб номланади ва асосан, қадимги Грек-Рим маданияти ва санъатини таърифлаш учун ишлатилади. Албатта, антик дунё маданияти ва санъатининг ижодкорлари

Юнонистон ва унга яқин бўлган ороларда қачонлардир яшаган қадимий грекларнинг аجدодларидир. Греклар ўзларини эллинлар, ўз мамлакатларини эса Эллада деб атаганлар. Эллада санъати кейинчалик Искандар Зулқарнайн(Александр Македонский) босиб олган жуда катта империя санъатининг ривожланишига таъсир ўтқазиб эллинизм даври ва санъатини бошлаб берди. Римликлар грек санъатини эъзозладилар, ўргандилар ва уни янги поғанага олиб чиқдилар.

2. Қадимги Юнонистон санъати (Эгей ёки Крит-Микена санъати)

Антик маданиятнинг пайдо бўлишида Балкан ярим оролининг жанубий шарқий томонлари, Пелопоннес яримороли, Эгей денгизидаги ороларда, Кичик Осиёнинг ғарбий соҳилларида эрамиздан аввалги III-II мингинчи йилларда яшаган қабилалар маданияти муҳим роль ўйнади. Бу маданият ёдгорликларини дастлабки Микена ва Критда топилганлиги ва мўллиги туфайли бу маданият адабиётларда крит-микена маданияти деб ҳам юритилади. Эгей маданиятининг энг гуллаган даври эрамиздан аввалги 2000 йилларга тўғри келади. Бу даврда ҳашаматли меъморчилик мажмуалари барпо этилган. Подшо саройлари, тасвирий ва амалий-безак санъат асарлари яратилган.



Шундай нодир ёдгорликлардан бири инглиз археологи А. Эванс томонидан Критдан топилган Кносс саройининг қолдиқларидир.



Кносс саройи реконструкцияси. Эр. ав. XVI аср.




Бу сарой унча баланд бўлмаган тепалик устига қурилган. Сарой табиат билан уйқунлашиб кетган. Бинолар лоиҳалаштириши эркин. Бинонинг

Қарбий томонида хоналар бўлиб, у ерларда, подшо бойликлари, қуроллар, катта хумларда турли озиқ-овқатлар сақланган. Марказий томондаги хоналарда эса хунармандларнинг устахоналари жойлашган. Кносс саройининг марказий майдони атрофида юзлаб унча катта бўлмаган хоналар, меҳмонхона, ибодатхона, подшо хоналари, диний маросимлар ўтказиш учун мўлжалланган хоналар бўлган. Бу хоналар бир-бири билан зина ва нарвонлар орқали боғланган.



Кносс саройи устунлари ва ички хона(интерьер) кўриниши. Эр. ав. Эр. ав.
XVI аср.

Кносс саройида устунлардан кенг фойдаланилган. Тош тагкурсига ўрнатилган ёғочдан ишланган устунлар Кносс саройининг тепа томонини кўтариб туриш учун ишлатилган. Бу устунлар ўзига хос хусусиятга эга бўлиб, улар пастга томон торайиб борган. Сарой деворларига суратлар ишланган, поллари эса бежирим нақшлар билан безатилган. Деворий суратлар мавзуси критликларнинг ҳаёти, меҳнати, хордиқ чиқаришига бағишланган.



1-3. Кнос саройи деворий расмлари. Эр. ав. Эр. ав. XVI аср. 4.Кносс саройи деворий расмлари. Грифон. Эр. ав. XVI аср.

Турли қуш ва ҳайвонлар расми ҳам жонли чизилган. Саройдаги диний маросимларни ўтказиш учун мўлжалланган тахтли зал, айниқса, нафис ишланган. Девор қизил рангга бўялган ва шу ранг устидан оқ, тўлқинсимон чизиқлар билан папирус новдаси ва улар орасида афсонавий ҳайвонлар— бургут бошли шерлар(грифонлар) тасвирланган. Кносс саройида аёл тасвири яхши сақланган. Археологлар уни «парижлик аёл» деб номлаганлар. У шаффоф материалдан туқилган либос кийиб олган. Аёл боши ён томондан ишланган, кўзи эса олд томондан тасвирланган.



1.Парижлик аёл. Мил. ав. XVI аср. Кносс саройи деворий сурати парчаси. Афина. Миллий музей. 2. Илон ушлаган маъбуда. Мил. ав. XVI аср. Кносс саройидан топилган ҳайкалча. Афина. Миллий музей. 1. Эчки ўз болалари билан. Мил.ав. 1600 йил. Кносс саройи деворига ишланган бўртма тасвир. Гераклеён, музей. 2. Хўкиз боши шаклидаги ритон. Кносс кичик саройи. Мил.ав. XVI аср.

Монументал ҳайкалтарошлик бу ерда учрамайди. Лекин майда ҳайкалтарошлик(Илон ушлаган маъбуда. Мил. ав. XVI аср), амалий-декоратив санъат, тоштарошлик ва заргарлик санъати борасида критликлар нодир ёдгорликлар қолдирганлар. Улар тоштарошликда жуда моҳир бўлиб, тошдан вазалар ишлаганлар, нафис бўртма тасвирлар яратганлар.

Ҳайвонларини (Эчки ўз болалари билан. Мил.ав. 1600 йил.), айниқса, турли денгиз ҳайвонларининг бўртма тасвирларини зўр маҳорат билан ишлаганлар. Инкрустация ишлаш, турли ашёлардан бадий асар яратишда ҳам моҳир бўлганлар (Хўкиз боши шаклидаги ритон). Критликлар кулолчилик санъатида ҳам катта ютуқларга эришганлар. Кулолчилик буюмларини махсус бўёқлар билан сирлаб, юзасини турли нақш, денгиз ҳайвонлари ва ўсимликларнинг тасвири билан безаганлар. Камарес кўзаси, Медуза сурати туширилган хум шундай асарлардан.




1. Камарес кўзаси. 1800 йил. Гераклеён. Музей 2. Медуза сурати туширилган хум.

Эрамиздан аввалги XIV асрга келиб, Крит маданияти инқирозга юз тутди. Эндиликда Эгей маданиятининг маркази грек материгига— Пелопоннес яримороти ва ундаги Микена, Тиринф манзилларига кўчди. Болқон ярим оролининг жанубида, Эгей денгизи оролларида ва Кичик Осиёнинг Қарбий соҳилларида яшаган ахеяликлар бу янги маданият тараққиётини белгиладилар.

Эрамиздан аввалги XVII—XIV асрлардан бошлаб, ахеяликлар маданияти ва санъати ўз характери жиҳатидан Крит маданияти билан алоқда бўлган, лекин бу яқинлик ахеяликлар санъатининг ўзига хос оригинал томонлари ҳам мавжуд эканлигини инкор этмайди. Бу айниқса, монументал меъморлик санъатида яққол кўзга ташланади. Критдаги шаҳарлар қалин деворлар билан ўрашга мухтож эмас эди. Чунки шаҳарни денгиз қуриқлар эди. Аксинча, ахеяликлар ўз турар жойи ва қўрқонларини баланд тепаликлар устига қуриб,

унинг атрофини қалин деворлар билан ўраб чиққанлар. Кейинчалик греклар бундай манзилларни «**акрополь**»— «юқори шаҳар» деб номладилар. Бизгача Микена ва Тиринфдаги баланд тепаликлар устига қурилган қалъалар, кўрқонлар етиб келган. Улар эрамиздан аввалги XIV—XIII асрларда қурилган. Бу кўрқонларнинг деворлари оқирлиги 5—6 тонна келадиган тошлардан қурилган бўлиб, деворнинг қалинлиги 6—10 м, хатто ундан ҳам ортиқ бўлган. Масалан, Тиринф кўрқони деворининг қалинлиги 17,5 м бўлган. Девор ичи бўшлиқ бўлиб, у ерда хазина, озиқ-овқат, қурол-аслаҳа сақланган.



1.Тиринфдаги акрополь.2. Шерлар дарвозаси.

Тиринфдаги акрополь содда, атрофи қалин девор билан ўралиб, унинг уч дарвозаси бўлган. Микена меъморлигида дарвоза қурилишига катта эътибор берилган. Микена кўрқонининг марказий дарвозаси «шерлар дарвозаси» деб номланган.

Дарвоза атрофи яхлит катта тошлардан қурилган. Тепасига устунларни ушлаб турган икки шернинг бўртма тасвири ишланган. Бу устун Микена подшолари қудрати ва бирлигининг рамзи бўлган. Тиринф ва Микена саройларининг деворлари алебастр билан ишланиб, деворий суратлар билан безатилган. Микена рассомлари ов манзаралари(Чўчка ови), акробатлар ҳаётидан олинган воқеаларни(Акробатларнинг буқа устидан сакрашлари), айниқса, жанг манзараларини тасвирлашни севишган.



1.Акробатларнинг бука устидан сакрашлари. 2.Чўчка ови. 3. Микена кўрғонидаги макбаралар қолдиғи.

Тиринф-Микена деворий суратлари Крит санъаткорларининг асарларидан бадий жиҳатдан бўшлиги, фигураларнинг бирмунча статиклиги, чизилган суратларнинг куруқлиги билан ажралиб туради. Ахеяликлар яратган кулолчилик буюмлари ўз шакли жиҳатидан Крит кулоллари яратган шакл ва услубини қайтаради, лекин ваза юзасига ишланган денгиз ҳайвонлари ва ўсимликлари тасвири бирмунча соддалаштирилган, кўп холларда нақш ритмига бўйсундирилган.

Микена-Тиринфдаги макбараларда археологлар бадий хунармандчиликка оид қимматбаҳо буюм ва олтин ниқоблар топишган. Бу макбаралар ичида машҳури Шох Атрей макбараси ва у ердан топилган нодир санъат ёдгорликларидир.



1.Шох Атрей макбараси ички кўриниши. 2.Олтин қадах.

Бу ерда олтин, тоқ хрусталидан ишланган идишлар, ўймакорлик билан безалган буюмлар топилган. Шер бошли олтин ваза, кабутарларнинг бўртма тасвири туширилган олтин қадах, инкрустация қилинган бронза ханжарлар

ахейликларнинг моҳир санъаткор бўлганликларидан далолат беради. Ҳозирги Вафио (Пелопоннес)даги макбарадан топилган икки олтин қадах ҳам ўзининг нафис ва бадиий безатилганлиги билан ажралиб туради. Улар юзасига ишланган буқа ови бўртма тасвири жуда жонли чиққан. Эрамиздан аввалги XII аср ўрталарида Болкон яриморолларининг шимолидан жанубга томон силжий бошлаган дорий қабилаларининг Эгей оролларидаги давлатларни босиб олиши Пелопоннесдаги Эгей маданиятининг тугашига сабаб бўлди. Лекин унинг бой маданиятининг кейинги эллин маданиятига таъсири кучли бўлди. Элладаликлар Эгей маданиятининг энг яхши ютуқларини ўзлаштирдилар. Улар Крит-Микен диний-мифологик тушунчаларини қабул қилдилар. Кулолчилик, майда пластика санъати анъаналари Эллада санъати таракқиётида давом эттирилди.

Одатда, Қадимги Юнонистон санъати тарихи Микенанинг кулаши ва дорийлар томонидан Пелопоннес, унинг жанубида жойлашган ороллар, Критнинг босиб олиниши билан бошланади ва эрамиздан аввалги XI асрдан то эрамиздан аввалги I асргача бўлган даврни ўз ичига олади. Дорийлар истилоси натижасида босиб олинган ерларда кичик-кичик кулдорлик давлатлари пайдо бўлган. Бу давлатчаларни греклар полислар, яъни шаҳар-давлатлар деб номлаганлар. Қадимги Юнонистон(Греция)нинг дастлабки ривожланиш босқичи милодан аввалги VII-VI асрларга тўғри келади ва бу даврни архаика даври деб юритилади. Айни шу давра илмий фикрлар ривожланди, медицина, астрономия, тарих, география, математика таракқий қилди, шъерият, адабиёт, театр камол топди, грек ёзуви пайдо бўлди. Греклар ўзларидан аввалги халқлар, энг аввало, Шарқ мамлакатлари-Бобил, Мисрнинг фан ва маданият борасидаги ютуқларини чуқур ўрганиб, ўзларининг қайтарилмас санъат ва маданиятларини яратишга муяссар бўлдилар. Айни шу даврда меъморлик ва тасвирий санъатининг кейинги таракқиётига пойдевор яратилди. *Билиб қўйган яхши. Эрадан аввалги VII-VI асрлардаги грек санъати ва маданияти тарихи архаик, яъни Қадимги*

(грекча «архейос»- қадимги) давр деб номланади. Чунки XIX асрда бошланган археологик кашфиётларга қадар Қадимги Греция тарихи эрадан аввалги VIII асрдан бошланар эди.

Қадимий цивилизацияларнинг бадиий меросида Юнонистон ва Рим усталарининг ижоди муҳим урин эгаллайди.

Юнонистоннинг ажойиб маданияти Болкон яриморо-лининг жанубида милoddан аввалги VII—I асрларда раv-нак топган. Унинг табиий шароити, илик, денгиз иклими, серхосил водийлари ва ТОР яйловлари, бой фойдали казил-малари қадимий юнонларнинг асосий турмуш тарзини ифодалайди.

Юнонистоннинг сиёсий тузилиши қадимий шарк ис-тибдодлардан кескин фаркланарди. Юнонистон кулдор мамлакат булса ҳам, унинг асоси демократия эди. Эркин аҳоли тенг ҳуқуқларга эга эди. Барча муҳим масалалар кенгаш ва овоз бериш ёрдамида ечиларди.

Қишлоқ хужалиги, ҳунармандчилик ва савдо иқтисод-нинг асоси эди. Милoddан аввалги V асрда мамлакатда санъат раvнак топган ва бу аср Юнонистон тарихида "олтин" аср деб аталади. Санъат асарларида кулдорлик демократиясининг ривожланиши, урф-одатлар, озод эл линларнинг карашлари ва дидлари ёркин ифодаланган. Шу даврда Афинада курилиш, шаҳар марказини тиклаш, янги ибодатхоналарни ва ижтимоий биноларни (мактаб, стадион ва б.) курилиши жуда юксак даражага эришган. Бу вақтда улур Фидий, Мирон, Поликет ажойиб хай-каллар ва мухташам бинолар бунёд этганлар; Софокл ва Еврипид трагедия ва шеърлар ёзган ва бошқа таникли ёзувчилар, олимлар, файласуфлар ижод этганди.

Бу даврда инсон баркамоллиги шуҳратланган. Мард ва ҳар томонлама баркамол, мукаммал одам сиймоси эстетик идеал булган. Куч, гузаллик, спорт билан шурул-ланиш натижасида гармонияга оид ривожланган тана чирой учун энг зарур намуна булган. Юнонлар инсондаги СОРЛИК ва гузалликни олдинги уринга, бойликни эса, кей-инги уринга куяр эдилар.

Юнонларнинг дини афсоналардан айрилмас эди. Улар тушунмаган нарсаларга одам киёфасини берган эдилар. "Худоларни узига каратиш учун,

уларга одам киёфасини бериш керак" деб уйлашган. Юнонларнинг худоси иде-аллашган мукаммал одамнинг сиймоси булган. Хайвонлар эса, санъатда инсонга буйсунган ва табиат кучини ифодаловчи булиб афсоналарга кирган.

Ватанпарварлик, юкори онг, баркамол инсоннинг чексиз қобилятига ишониш, бадий тилнинг оддийлиги ва ифодалилиги, шароитни турри акс эттириш — антик маданиятнинг асосий хусусиятларидан бири эди.

Антик санъат Оврупо маданиятининг келажагида муҳим аҳамият касб этган.

Антик санъатдаги инсон гузаллиги туррисидаги тасаввурлар мужассамланиб, тарихда биринчи мартаба одамнинг танаси ва руҳи гузаллик, эстетик идеалнинг асосига олинган. Поликлетнинг назарий асарида улчов бирлиги сифатида одамнинг буйи олинган.

Юнон жамиятида аёлларнинг ҳуқуқлари чеклангани-га қарамасдан, улар сиймолари санъатда соғлом, яхлит шаҳе ва ҳар томонлама баркамол ифодаланган эди; Мисол учун, Афродита илохининг (Венера Милосская) ҳай-кали ҳозиргача аёлларнинг гузаллик тимсоли ҳисобланади.

Юнонларнинг турмуш тарзи ва эстетик тасаввурлари таъсирида костюмлари шаклланган. Қулай иқлим, одам танасига эстетик қараш антик юнон костюми шакллари-нинг уйрунлигини ва енгиллигини аниқлаган эди.

Ўз кийимлари учун юнонлар юмшоқ, тукилиб туради-ган, яхши бурмаланадиган матоларни қуллаган эдилар. Матоларни қулда туқув дастғохда ишлаб чиқарар эдилар. Туқувчилик маҳорати юк,ори баҳоланарди. Афсоналар буйича барча Олимп илоҳлари ва бошқа аъзолари машҳур туқимачилар бўлишган ва узаро шу қасбда му-собакалар утқазилган.

Юнон матоларининг тола таркиби жун ва зирир булган. Пахтани улар биринчи мартаба Александр Македонский (Искандар Зулқарнайн)нинг ҳарбий юришларида Хиндистонда қурилганди.

Юнонларни костюмнинг, асосан, пластик томони қизиқтиргани учун, улар кийимда сидирра матоларни қуллашган. Қук, қизил, тук қизил, яшил, сарик, жигар-ранг ва, асосан, оқ ранглар учрарди. Қул ва жигар ранг-лар

мотам ранглари эди. Сидирра газмоллар кашталанган, аппликация килинган ёки тасвирланган хошиялар билан безатилган. Юнон навдиининг белги маъноси булмаган. Меъморчиликда ва амалий санъатда накш буюмнинг беази булган. Накшлар усимлик шаклларида уйрунлик асосида ишланган. Иккинчи манба — геометрия булган. У гузал, у санъат, хар кандай шаклнинг асоси деб хисоб-ланган. Усимлик ва геометрик тасвирлар, стилизациялашган тасвирларда меандр, Крит тулкини ва пальметталар энг куп учраган.

Санъатнинг барча турлари каби юнонликлар учун костюм яратиш ижод эди. Матонинг пластик хусусиятларидан гузалликни яратиб, юнонлар гузаллик конунлари буйича мато билан ишлаш махоратини урганишган.

Хар хил йуналишларда жойлашган, тана шаклини курсатадиган ва харакатларга биноан узгарадиган бурмалар костюмнинг эстетик асоси булган эди. Юнон костюмини яратиш учун газмолнинг шундай фактурасини танлаш керак эдики, кайсики яхши тахланиб, накш ва безаклар билан уйрунлашсин. "Одамнинг акли бовар килмайди, кандай килиб кадимий юнон ва римликлар шундай гузал, узига хос гармоник драпировкаларни уйлаб топишган" (С. Чуйков. Итальянские дневники. М., 1966, с. 67).



1-расм. Буртма тасвир. Эркаклар хитон ва хламидада, аёллар — хитон ва гиматийда.

Юнон костюмининг тузилиши асосида турнаб куйил-ган, мах,камланган ёки гавдага .уралган газмол парчаси эди. Матонинг энига, узунлигига, махкамланган жойига, тахланиш усулига, букилиш, ураниш ва жойланишига караб костюмнинг хар хил турлари яратилган.

Эркаклар ва аёллар кийимининг асосий турлари куйлак "хитон" ва ёпинчок "гиматий" булган. Улар турри туртбурчак шаклида зирир ёки жун матолардан килинганди.

Эркаклар костюми. Эркаклар хитони (1-расм) купинча бир парча матодан килинарди. Ён томонидан кули учун жой колдириб ти-киларди. Баъзан, хитоннинг ён томони очик колдирилар ёки энг килинарди. Бундай хитон яхлит тукиларди. Одатда, хитоннинг узунлиги тиззагача булган, узун хитонни эса кохинлар ва актёрлар турли маросимларда кийиш-ган. Хитондан, одатда, уйда ёки ички кийим сифатда фой-даланишган.

Энг кенг таркалган устки кийим ёпинчок "гиматий" турри туртбурчак (1,7x4 м) жун матодан кили-нарди. Унинг энг кенг таркалган кийиш усули: сал дра-пировкаланган ёки тахлама-лар хосил килинган, бир томони чап елкадан кукракка тушиб турган, иккинчи томонини эса оркадан унг кули-нинг тагидан утказилиб, чиройли тахламалар билан жойлаштирилар эди.

Кенгрок ва узунрок гиматийни "паллиум" ёки "палладиум" деб аталган ва уни драматурглар, нотиклар кийишган. Бу кийим одамнинг ташки куринишига улурворлик салобатини берар, драпировка гавданинг пластик эгилувчанлигини таъкидларди. Драпировкаларнинг турри, айлана ва эгри йуналишда жойланиши ва битта елкадаги марказга йирилиши тананинг харакатларига мувофик булиб, бу образнинг динамиклигини таъкидлар эди.

Юнонларнинг устки кийими гиматийдан ташкари ёпинчок "хламида" хам булган. Уни саёхатчилар ва жангчилар кийишган. У хам тугри туртбурчак матодан килиниб, гиматийга нисбатан калтарок эди. Хламида елка-га

ташланарди ва чап ёки унг елкага турнарич "фибула" билан маҳкамланарди. Эркин томонлари чиройли фалдалар найсимои бурма билан тукилиб турарди, бир кули очик колдириларди. Одатда, хламидани босма мовутга ухшаган жун матодан тайёрлашган.

Юнонлар, купинча, бошяланг юришган, аммо саёхатга кенг соябонли юмалок, фетр шляпа кийишган.

Жангчиларнинг ички кийими калта хитон булган, унинг остидан металлдан пешбанд кийишган. Хитоннинг устидан совут "кираса", бошга дубулра (шлем) кийишган. Болдирни "кнемидес" билан химоя қилишган. Устки кийими хламида булган.

Косиблар ва куллар, одатда, енгсиз ёки калта енгли дарал жун матодан хитон кийишган. Куллар эса, унг томони очик "экзомида" ёки ишлаган пайтда пешбанд кийишган.

Аёллар кийими. Юнон жамиятида аёлларнинг ҳуқуқ-лари чекланганига қарамадан, авлодлар тарбиялаган гузаллик тўйруси, умумий маданият ривожини юнон аёлининг кийим бичимини аниқлар эди. Кийим аёл коматининг чиройини курсатиши, тукилиб туриши лозим эди.

Инсоният тарихида юнонлар биринчи бўлиб топган драпировкаларнинг жойланиши ва ритмикаси бадиий бирлик қонунига иттифог этган.

Аёлларнинг кийимлари эркакларникига нисбатан хилмаҳил булган. Асосий кийими ҳисобланган хитон ва гима-тийдан ташқари бошқалари ҳам бор эди

Хитоннинг бир неча тури булган: қайтармали (ёқасимон) хитон "диплодий", кенг"ионик" ёки тор "дарик" хитонлар. Диплодий одамнинг бўйидан 60-70 см узунроқ турри туртбурчакли матодан қили-ниб, ён томонлари тикилмас-ди. Тепа томони эса қайтари-ларди ва елкаси турнарич "фибула" билан маҳкамланиб, драпировкаланарди. Хитоннинг қайтармаси бошқа рангли мато билан ёки кашта билан безатилиб, диплодийнинг эркин фалдалари ва драпировкалари билан уйрунлашган.

Энг оддий хитон — дарик хитони эди. У буй баравар бир парча матодан килиниб, елкаси фибулалар билан махкамланарди, ён томони эса очик, тикилмасдан коларди. Баъзан у иккита парча матодан, орк,а булаг и узунрок, килиниб, бошга ёпинчок, сифатида ташланарди

Спартан кизлари унг томони тикилмаган ва елкаси бириктирилмаган хитон "пеплос"ни кийишган. Одатда, Афина пеплосда тасвирланарди.

Энг мураккаб, сер драпировкаланган гузал аёллар кийими — ионик хитон булган. У икки парча кенг, узун, юмшок матодан килиниб, елкаси купгина фибулалар би-лан махкамланиб, сер драпировкаларни хосил этарди.

Хитонлар белидан, курагининг пастидан ёки буксасидан белбор билан борланарди, ортикча узунлиги белборнинг устидан тушириб куйилиб, "клопос"ни хосил этарди. Баъзан хитонлар икки жойидан борланарди, айникса, ионик хитонлар турли усулда борланар эди

Аёлларнинг устки кийими хилма-хил драпировкаланган гиматий эди. Аёллар гиматийи эркакларникига нисбатан кичикрок аммо куриниши гузалрок, эди.

Аёлларга кучага хитон ва гиматийсиз чикиш такикланганди, эркаклар эса гиматийни хитонсиз кийишарди.

Хунарманд ва савдогар табакага мансуб аёллар жун ёки зирир матодан сипо хитон ва гиматий кийишган, кучага чикканларида гиматий билан бошларини хам ёпишган.

Куллар, одатда, уз миллий кийимини кийишарди.

Юнон аёллари хуснига гузал соч турмаклари (причес-калар) янада хусн кушарди. Сочлари узун булиб, Гомернинг "тиллажингалак" сочлари энг чиройли хисобланарди. Сочни оркага турмаклаш усули "коримбос" классик усул, деб хисобланарди. Аёллар ку-пинча сочини тасмалар ва турлар билан безатишарди.

Аёлларда бош кийим асосан булмаган, улар намгарчилик-да гиматийни бошга ташлаб юришган ёки думалок, похолдан килинган шляпа "фолия"-ни кийишган.

Аёлларда кийимга кушимча соябон ва баргсимон елпирич булган. Оёк, кийимлари турли шаклли шиппаклар эди. Улар ёркин рангли чармдан килиниб, олтин ва кумуш билан безатиларди.

Заргарликда Юнонистон юксак махоратга эришган. Сирралар, маржонлар, камея ва инталиялар, узуклар, занжирлар, тиллакош *"диадема"лар*, билакузуклар олтин ва кумушдан ишланган ва кимматбаҳо тошлар кадалиб, уйма накшлар билан безатилганди.

Юнон аёлини косметикасиз тасаввур килиш мумкин эмасди. Улар бронза ойнага караб юзларини кизилга, лабларини, кош ва киприкларини буяшиб, атирлар сепар эдилар. Атирлари нозик флакон *"лекиф"ларда* сакланарди, бу идишлар хакикий санъат асари булган.

Инсоният куп маротаба юнонлар кийимига ухшаш кийим яратишга интилди, аммо кадимий Юнонистонда узига хос шароитларда санъат асосида яратилган костюмларнинг пластик гузаллиги факат уз даври шароитида камолотга эришиши мумкин. Лекин антик костюмнинг асосий бадий элементлари — умумий пластик шакли, мутаносибликлари, драпировка ритмлари Оврупо маданиятининг бойлиги булди ва кейинги даврларда Оврупо костюмининг ривожланишига таъсир курсатди.

ҚАДИМГИ РИМ КОСТЮМЛАРИ

Кадимий Римнинг тарихи милоддан аввалги III асрда бошланиб, милоднинг V асрида кулларнинг кузро-лони ва вахший кабилалар хужумидан кейин них,оясига етган эди. Рим мамлакати харбий империя булган.

Римнинг тарихий тақдири унинг табиий шароитлари билан асосланган эди. Серхосил ерларнинг камлиги Рим жамиятининг харбийлаштирилишига сабаб булди ва римликларни боскинчилик урушларига олиб келди. Яшаш

учун кураш римликларни кийинчиликлар билан курашга чорлади, орир турмуш шароити эса уларни жуда ишбилармон одам килди.

Рим жамиятининг аник, синфий табакаланиши кади-мий римликларнинг костюмида уз ифодасини топди. Вир томонда эркин ахолининг мураккаб, хашаматли, ёркин ва ранг-баранг кийимлари булса, иккинчи томонда эса, куллар ва камбаралларнинг оддий дарал кийимлари булган.

Лекин Рим жамиятида кулдорлар орасида хам тенг-сизлик бор эди. Айникса, синфий табакаланиш Рим им-периясида (I—V асрлар) кучайиб кетган эди. Ахолининг хар хил табакаларининг кийими уларнинг жамиятда эгал-лаган урни билан борлик эди. Баъзан, костюмда махсус белгилар учрар эди. Кийимда замон рухидаги дабдабалик мисли курилмаган даражага етиб, маънавий мадани-ятни жуда паст даражага туширди.

Кадимий римликларнинг кийими республикачилик даврида яратилган. Жанговар жангчи ва басавлат аёллар уларнинг эстетик идеали булган. Мураккаб кийимлар гавдага савлат ва салобат бахш этган.

Кийим тайёрлаш учун кулланган матолар: жун, зирир ва шаркдан олиб келинган харир шойилар булган. Костюмда ёркин ранглар кулланар эди: кизил, бинафша, тук кизил (кирмизи) ва сарик. Ок ранг тантанали деб хисобланарди.

Четдан Караганда, римликларнинг костюми юнонлар-никига ухшаш булиб, аммо бу ухшашлик факат ниобий эди, чунки юнонлар ва римликларнинг костюмлари дра-пировкаланарди. Аммо Римда одамнинг гузаллиги туррисидаги тасаввур ва костюмнинг эстетик бахоланиши Юнонистонга нисбатан мутлако бошка эди. Римда гузал одам танасига сиринишмас эди. Римда иклим совукрок булгани учун кийимлар ёпик булиб, иссик саклаши керак эди. Бундан ташкари, Римнинг олий табакалари юнонларга нисбатан бошкача булган. Улар ишламаган ва шунинг учун уларда тананинг машк килишига эхтиёж йук эди. Римликларнинг костюми, харбий костюмдан ташкари, тез харакат килишга имконият бермас эди.

Умуман, секин юриш, костюмдаги бенуксонлик ва сунъий ҳаракатлар назокатнинг чуққиси деб ҳисобланганди.

Эркақлар костюми. Римликлар костюмининг асоси ички кийим *"туника"* ва устки кийим *"тога"* булган.

Уларнинг қуриниши юнонлар кийимиға ух-шаш эди, аммо бичими ва мохияти билан фаркланарди.

Туника — турри шаклли, енгли, бичил-ган ички кийим булган. Унинг асосий турлари *"коломбиум"*, *"таларис"* ва *"далматика"* булган.

"Коломбиум" — узунлиги болдиргача булган, кенг эмас, калта енгли туника. *"Таларис"* — бойларнинг узун енгли туникаси. *"Далматика"* — узун-рок,, кенг енгли, ёйилиб турганда хоч (крест)ға ухшаган кийим. Шунинг учун далматика-ни насроний кийишган (римликлар аввал бут-параст эдилар, I асрдан бошлаб насронийликни кабул килишган).

Ролиб саркардалар кийишган кирмизи рангли туника энг башанг кийим эди. Уни пальметталар билан кашталанган кирмизи матодан тикишарди. Сенаторнинг туникаси вертикал кизил чизик билан безатиларди ва шу билан у фаркланарди.

Салкин пайтларда римликлар бараварига бир неча туника кийишарди. Мисол учун, император Август бирданиға туртта туника кийганди.

Туникада, у ички кийим булгани учун, кучада юриш мумкин эмас эди.

Римнинг рамзий устки кийими *"тога"* булган. Уни факат эркин рим фукаролари кийиши мумкин эди. Чет элликлар ва кулларға тогани кийиш манъ этилганди.

Тога катта турри туртбурчак (6x1,8 м) ёки эллипси-мон жун мато парчасидан килинади. Тоганинг мураккаб драпировкаларини ҳосил килиш жуда қийин эди, шунинг учун бу ишни куллар бажарарди.

Кирмизи ранг салтанат рамзи булган. Кирмизи рангли тогани факат император кийиши мумкин эди. Кирмизи чизикди *"тога претекста"*ни магистрат, цензор, претор, квестор ва кохинлар кийиши мумкин эди. Сакланиб колган кадимий одатға биноан, тога протекстани 17 ёшгача булган

урил.болалар кийишарди. 17 ёшга тулган кундан бошлаб улар ок, тогани кияр эдилар, бу балоратга етганлик рамзи эди.

Тогадан ташкари *"лацерна"* тантанали плашч, деб хи-собланарди. Лацернанинг узунлиги тиззагача булиб, унга кулланган матолар жуда кимматбахо, яъни тилла ва кумуш билан тукилган эди. Одатда, уни оркага ташлаб, икки елкани ёпишар ва икки учини буйнининг олдида махсус тука *"фибула"* билан бириктириб куйишарди. Кей-инчалик лацерна узгара бошлади ва оддий матодан килин-ган ок тоганинг устидан киядиган плашч булиб колди.

Рим императори ва юкори лавозимли шахслар, одатда, *"полудаментум"* — уртача хажмли, узунлиги тизза-дан сал пастрок, плашч кийишган. Полудаментумни ор-кага ва чап елкага ташлаб, унг елкада фибула билан кис-тириб куйишган. Баъзан, уни шарсимон тахлаб, чап елкага ташлар эдилар ва уни бир неча маротаба чап кулга ура-шарди.

Жангчилар катта булмаган жун мато парчасидан килинган плашч *"сагум"*ни кийишарди., Камбараллар ва кишлокликлар дарал жундан плашч *"пенг/ла"*ни кийишган. Унинг шакли ярим дойра ёки дойра эди, бош учун

кесим килиб, капюшон тикиб куяр эдилар. Бирок, купинча кимматбахо матодан килинган пенулани римлик олифталар хам кийишган.

Римликлар иштон кийишмаган. Бирок шимолда улар бу кийим турини кучманчи кабилалардан олишган. III асрдан бошлаб куп римликларнинг гардеробига иштон кирган эди, айникса харбийларда.

Эркин римликларнинг оёк кийими шиппак ва ним-этик булган. Улар тога билан кийилиши шарт эди. Шиппаклар тасма ёрдамида оёкка махкамланарди. Улар ранг-баранг чармдан тайёрланиб, кумуш ва олтин тукалар билан безатиларди. Камбараллар ва куллар оддий ёрочдан тайёрланган бошмокни кийишган.

Римликларнинг прическалари хар хил эди. Сочлари жингалак ёки силлик булган. Одатда, улар соколларини кириб ташлар эдилар, аммо кичкина жингалак килинган сокол хам куйишган.

Костюмга кушимча безаклар: узуклар, тукалар, юма-лок *"булла"лар* ва гуллар, япрокдан гулчамбарлар та-кишган, харбий саркардалар олтиндан ясалган гулчамбарлар билан ясанишган.

Аёллар кийими. Римда аёлларнинг урни юнон аёл-ларига нисбатан бошкача булган. Улар катта юридик ҳуқуқларга эга булиб, иззат-хурмат килинади. Аммо Юнонистон ва Римнинг ижтимоий тузумининг ухшашлиги ва юнон маданиятининг таъсири натижасида кади-мий юнон ва рим аёлларининг кийёфасида ухшашлик бор эди.

Кадимий рим аёллари кийимининг бадиий томони шакл-ли драпировка ёрдамида яратишга асосланган, аммо римликлар кийимининг драпировкаси юнонларникига ухшаш пластик булмаган.

Аёллар кийими туника, *"стола"* ва *"палла"*дан иборат эди.

Олдинги безак элементлари кийимда куп жой эгалла-мас эди. У вақтда кийим тор ва турри шаклли туникадан иборат эди. Туникага тикилган юмшок чарм тасма кукрак-ни ушлаб турар эди.



1-расм. Рим \айкалларида нусхалар. Аёллар костюми: стола ва палла.

Туниканинг устидан кенгрок, узун, хитонсимон *"стола"*ни кийишарди. Агар туника енгли булса, стола енг-сиз эди ва аксинча. Столани белбор билан борлашарди, ортикча узунликдан *"буф"* хосил килишарди. Купинча столани иккита белбор билан борлашарди: одатда, бири-нинг устига иккинчисини кундаланг куйиб махкамланар-ди. Туника ва столлага кулланган матолар хар хил эди: калинрори ички кийимга, юпка ва кимматбахоси — устки кийимга. Столанинг этаги кенг куйма бурма *"инстита"* билан безатиларди.

Аёлларнинг устки кийими юнонларнинг гиматийига ухшаган *епкнчок*, *"палла"* булган. Уни турли усулда кийишган. Плашч палла гавданинг атрофида айлана драпировка килинарни. Уйдан чикканда рим аёллари бошла-рини ва юзларини тур билан беркитишарди.

Ёш кизлар палланинг урнига калта, тиззадан юкорида булган *"туника интериор"*чи кийишган. Балогатга етганда ва туй кунида улар тор, узун белбогсиз *"туника текта"*ни кийишган.

Империя даврида бойликка интилиш аёлларнинг кийимига хам уз таъсирини курсатди. Хилма-хил рангларга буялган юпка матолар пайдо булган. Айникса, юнон ва оссурия ипаклари бошка шойи газмоллардан афзалрок хисобланган. Шойи маточарга кизикиш шунчалик зур эдики, хаттоки 1 кадок, шойининг нархи 1 кадок олтинга тенг эди.

III—IV асрларда аста-секин драпировка йуколади. Кимматбахо, орир, йирик накшли матолар косе ва оссурия матоларининг урнига келади. Кийим орир, шакли ясси ва тананинг гузаллигини курсатмайдиган булди. Пластик столанинг урнини узун, тор, кенг енгли, калин газмолдан килинган *"далматика"* эгаллади.

Рим камбарал ахоли дарал матодан килинган туника ва палла кийишарди. Кучага чикканда улар бошларига паллани ураб юришарди.

Бой аёллар кашта ва металл тука билан безатилган юмшок бошмокни кийишган. Уларни кизил, ок, тук са-рик (зафарон) чармдан килишарди.

Рим патрицианкаларининг соч турмаклари хилма-хил ва мураккаб булган. Улар сочларини турри фарк очиб, силлик тарашар, баъзан узун кокиллар ёки юнонларни-кига ухшаш прическалар килишарди. Лекин каркаса мах-камланган кокиллардан килинган баланд прическалар, дархакикат, рим аёллариники булганди. Агар узининг сочи етмаса, сунъий сочларни куллашарди.

Патрицианкалар уз кийимини олтин, марварид ва ким-матбахо тошлардан ясалган заргар буюмлари билан безатар эдилар.

Кийимга кушимча килиб патдан ясалган елпирич олиб юришарди.

Рим матроналари сухбат пайтида, купинча, кулида кахрабо (янтарь) сокка ушлаб турар эдилар.

Аёллар куп микдорда хар хил косметик воситаларни ишлатар эдилар: хидли ёрлар, сиркалар, упа ва бошкалар.

Рим империяси барбод булгандан кейин (476 и.) антик кулдорлик дунёси хам йуколди. Кадимий дунё тарихининг сунгги боскичи якунланди. Лекин уларнинг яратган маданий мероси жахон тарихида мухим урин эгаллайди.

Назорат саволлари :

1. Кадимий Юнон костюмидаги газлама, ранг, накшлари канака?
2. Кадимий Юнон костюмлари канака матодан тикилган?
3. Аёллар кийими канака ранг ?
4. Кадимий Рим костюмидаги газлама, ранг, накшлари канака?
5. Кадимий Рим костюмлари канака матодан тикилган?
6. Аёллар кийими канака ранг ?

Таянч иборалари :

MA'RUZA MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI
Mavzu: V-XX-asrlar G'arbiy Yevropa kostyumi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchilar
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daq.)	1.1. Mavzuning nomi, maqsadi va kutilayotgan natijalarni yetkazish. Mashg'ulot rejasi bilan tanishtirish. 1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni, mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxatini aytish. 1.3. O'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtirish.	Tinglaydilar, yozib oladilar. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar.
2. Asosiy bosqich (60 daq.)	2.1. Tezkor-so'rov/ savol-javob/ aqliy hujum orqali bilimlarni faollashtirish. 2.2. Ma'ruza rejasi va tuzilishiga muvofiq tayanch tushunchalar berish. 2.3. V-XX-asrlar G'arbiy Yevropa kostyumining tarixiy bosqichlari bilan tanishtirish; 2.4. V-XX-asrlar G'arbiy Yevropa kostyumlarini tasniflash; 2.5. Davrlarning o'ziga xos jihatlari, mohiyatini ochib berish	Javob beradilar Tinglaydilar, Yozadilar. Guruhlarda ishlaydilar, taqdimot qiladilar.
3. Yakuniy bosqich (5 daq.)	3.1.Mavzu bo'yicha yakunlash, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratish. 3.2. Guruhlar ishini baholash, o'quv mashg'ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qilish. 3.3. Mustaqil ish uchun topshiriq berish va uning baholash mezonlarini yetkazish.	O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar. Savol beradilar Topshiriqni bajaradilar

MA'RUZA MASHG'ULOTINING TA'LIM TEXNOLOGIYASI MODELI

Mavzu: V-XX-asrlar G'arbiy Yevropa kostyumi

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni:31
O'quv mashg'ulotining shakli va turi	Ma'ruza (axborotli)
Ma'ruza rejasi / o'quv mashg'ulotining tuzilishi	1. V-XX-asrlar G'arbiy Yevropa kostyumiga umumta'rif 2. V-XX-asrlar G'arbiy Yevropa kostyumi badiiy madaniyati 3. Роман uslubi 4. Готика uslubi 5. Уйғониш davri kostyumlari. 6. Барокко uslubi 7. Рококко uslubi 8. Классицизм uslubi
O'quv mashg'uloti maqsadi: V-XX-asrlar G'arbiy Yevropa kostyumi to'g'risida tushunchalarni shakllantirish, davrning ijodiy jarayoniga xos bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish	
Pedagogik vazifalar: V-XX-asrlar G'arbiy Yevropa kostyumining umumiy xususiyatlari bilan tanishtirish; V-XX-asrlar G'arbiy Yevropa kostyumiga tasnif berish; V-XX-asrlar G'arbiy Yevropa kostyumlarining uslublari tushuntirish; V-XX-asrlar G'arbiy Yevropa kostyumining jodiy yondoshuvini o'ziga xosligini ochib berish.	O'quv faoliyati natijalari: V-XX-asrlar G'arbiy Yevropa kostyumining umumiy xususiyatlari ko'rsatadilar; V-XX-asrlar G'arbiy Yevropa kostyumini tasniflaydilar; Ijodiy jarayondagi ijtimoiy-g'oyaviy va badiiy masalalarni aytib beradilar; V-XX-asrlar G'arbiy Yevropa kostyumining o'ziga xosligini tartibli ravishda ochib beradilar
Ta'lim usullari	Ma'ruza, insert, aqliy hujum va boshq.
Ta'lim shakli	Ommaviy, jamoaviy, guruhlarda ishlash
Ta'lim vositalari	Ma'ruza matni, texnika vositalari va boshq.
Ta'lim berish sharoiti	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhlarda ishlashga mo'ljallangan xona
Monitoring va baholash	Og'zaki so'rov: tezkor-so'rov. Yozma so'rov: referat, test.

Режа.:

1. Костюмнинг тузилиши
2. У - XX асрлардаги костюмлар
3. Аёллар ва эркаклар кийимлари
7. Илк урта асрлар даври
8. Кеч урта асрлар даври
9. Готика архитектураси
10. Рицарлар костюми
11. Аёллар оёқ кийими

Адабиётлар:

1. Н. М. Каминская. История костюма. М, 1986.
2. Л. Орлов, Албука моды. М. 1989.
3. Г.К. Хасанбоева, В.А. Чурсина. «Костюм тарихи»

Урта асрлар даврида янги гузаллик идеали - биби Марьям, худонинг онаси тимсоли пайдо булди.

XII - XIII аср 1-ярми. Эркак ва аёллар кийими узун, ёпишиб туради, Кийим орт кием урта ва ён киркимлар оркали ва бел сатхида овалсимон киркимли чокнинг шнур оркали утказилиши окибатида ёпишиб турарди.

XIV аср 2-ярми ва XV аср 1-ярми (тоника даври). Эркаклар калта кийимининг пайдо булиши. Биринчи булиб рицарь костюми яхлит металл (деталлари шарнир билан бириктирилган) кольчука пайдо булди, кайсиким аҳолида деталларга булингач, олд, орт булак ва енг шакллари аникланади. Хажм виточкалар оркали хосил килинади. Бел эса киркимли эди.

XV аср 1-ярмида узун ва тор кийимлар, осилиб турувчи енглар, учли туфлилар, улкан бот кийимлар моддада эди.

Ранглар гаммаси - очик ва тиник кизил, кук, яшил.

Илк урта асрлар даври (XI - XII асрлар). Эркаклар костюмига рицарлар курол - яроги шаклининг таъсири

кузатиларди. Блю - пастрок жойлашган киркма бел булиб, устки берк кийим. Нарамник - ён томонлари очик, бот учун киркими газламанинг

туртбурчак ёки овалсимон газлама булагидир. Нарамник - мипартн гербсимон белгилар билан безатилади. XIII асрда сюрко - ён томонлари тикилган, чукур енг умизи кийим булиб, котт - куйлак устидан кийиларди.

Кеч урта асрлар даври (XIV - XV асрлар) Эркаклар костюми силуэтлари, ёпишиб турувчи ва этаги кенгайган енгли, безак белбогли, олдиндан тугмали иахмалар белда тортилиб турувчи, калта жакет билан алмашди. Ушбу куртка узун тумшукли (70 см) "пигаш" номли пойафзал билан килади. Пойафзал ранги кийимлар рангига мое танланади.

Сюрко урнини упедянд-белбогли ва белбогсиз, енги кенг (3 м), этаги (эни 3 м) ва узунлиги кенг, кадалмайдиган коплама кийим билан алмашди. Бошга эса капюшон-шаперон-учлари осилиб турувчи драпировкали бот кийим. Соч турмаги-узун гажакли ва челкали.

Аёллар костюми. Илк урта асрлар даврида аёллар асосан иккита туникани устма - уст кийишарди. Унда остки туника кенг, узун, енги тор булса, устки туника этаги калта, енги кенг ва калтарок эди. Уз вактида куракни кисиб турувчи калта жилет, блио, плащ - мантия пайдо булди. Бош ёпинчоклари йуколиб, уринга соч ёйиб ёки уриб куйиларди. Оёк кийим эркаклар пойафзалига ухшаш.

Кеч урта асрлар даврида хайрлашаётган готика архитектурасининг таъсири костюм чузик пропорциясида кузатилади. Силуэтлар - ёпишиб турувчи ва трапеция.

Bu davrda,odatda,mato va kiyimlar feodallar qarorgoxida ishlab chiqarilardi.Faqat XI asrda shaxarning rivojlanishi bilan kiyim tikadigan sexlar paydo buldi. Kiyim jun va zigir matolardan qilinardi

Rim savdogarlaridan sotib olingan shoyi boylik ramzi xisoblanib uni faqat boy feodallargina shoyidan kiyim kiyishi mumkin edi.

2.Erkaklar kostyumi.

ERkaklar kostyumi birining ustidan biri kiyiladigan ikkita koynak “tunika “va yopinchiqdan iborat edi.oldin tunikalar kalta,tizzagacha bolgan,XIasrdan

boshlab ular boldirgacha uzaygan.kaltasini odatda yoshlar kiyishar edilar.Bu davrda kostyum yoshga qarab uzgarar edi.

Odatda kekslar juda kalta va juda tor va juda yorqin rangli kiyimlar kiyishmas edilar.

Qirol tuikasining uzunligi yerga tegar edi.Tunika doimo belga bog`lanardi,bazan belbog`ning ustidan kiyim osilib turardi.

Ichki tunika “kamisa”yaxlit bichilgan uzun engli edi.ustkisi esa esa”kotta”engsiz yoki keng kalta yengli avalsimon edi.

Kotta kamizaga nisbatan qimatbaxo matolardan tikilardi.

Kotta yengli yengsiz bolgani sabali uni boshdan kiyishar edil shuning uchun old yoqa sal qirqilib bog`ichga bog`lanar edi. Bu davrda erkaklar kiyimi shakli ritserlar sovuti ta`sirida edi. Kiyimlar tanaga yopishib paxta b.n qovulardi.



*Романский придворный костюм:
верхняя и нижняя туника — камиза и котта*

Sochlari aylanasion qisqa qilib qirqib,peshonaga gajak qilishgan.XI asrlarda esa uzun sochlarini yelkalariga tashab yurishgan.

Bosh kiyimlar kapyushon va konussimon qalpoqlar bolgan.

XI asrlarda esa koproq qolqop kiyishgan.

XII-XIII asrlarda tikish usuli takomilashishi bilan kiyim xilma xil bola boshladi. Cherkovning talablariga qarshi kiyim tarayib, gavdaning tepa qismiga yopishib turadigan bo`la boshladi.

Ayollar kostyumi.

Ayollar kostyumi erkaklarniki singari birining ustidan biri kiyiladigan uzun tunikalar edi. Ichki tunikani ichki ko`ylak kamizaning ustidan kiyishardi. Tunikalar “katta” va “syurko” deb atalardi. Kiyimning siliyeti yelkasi tor va etagi juda keng trapetsiya shaklida edi. Odatda koylaklar yoqasiz berk edi. Oyoq kiyimlari rangli charmdan poshnasiz yumshoq tagchamli, yopiq tuflilar edilar.

Bosh yopinchiq

Usha darv ayolarining liboslari odatda uzun va keng ustki chopon shaklida yengisi tirsakgacha bolgan.

Ichki koylagi esa yengisi uzun ustki koylagidan chiqib turgan



Bel chizig`I ko`tarilgandi. XI asrdan boshlab uzun yupkaning etagi yonidan yoki oldidan kotarilib qorinning ustida burmalangan. chunki bu davrda

urushlarda vabo va ulat epidemiyasi natijasida kop odam xalok bolgan.axolini kopaytrish kere edi shu sababli xomlador ayolar izat ikromda edilar.



qizlar sochini yoyib yoki o`rib yurishardi,ayolar esa sochini bosh kiyim bilan berkitishar edi.

Ko`pincha bu yuz uchun teshik qilingan dumaloq ro`mol edi. Bu ro`mol butunlay boshni va yelkani berkitardi.

Ko`pincha ro`molning uchini kottaning yoqa umiziga kirgizilgan edi. Bazan ro`molning ustidab yopinchoq bog`ich chambar kiyilardi.

To`qa “fibula”lar, uzuklar,kamar va chambarlar bilan kostyum bezatilardi.



XII asrlarga kelib nasroniy dining ta`siri kuchli edi. O`rta asr madaniyati va san`atin antik ananalar zamirida vujudga kela boshlaganiga qaramay unda asta sekin antik an`analar susayib sxematizm avj oldi.

Aslzodalarning saroy xayotida ayolar muxim rol uynay boshladi. Go`zal ayolga sig`inish BIBI Mayramga sig`inish bilan boshlandi.

Cherkovning ta`kibiga qaramay aslzoda ayollar kiyimiga qimmat baxo xashamatli murakkab siliutlar va boy bezaklar paydo bo`la boshladi.

Назорат саволлари

1. Аёллар ва эркаклар костюмлари орасидаги фарк?
2. Уша даврда соч канака турмакланган?
3. Ранг гаммасини сананг?

11-Mavzu: O'rta Osiyo kostyumi tarixi

Режа:

1. O'rta Osiyo kostyumi tarixi
ga umumta'rif
2. Qadimgi Ўрта Осиё костюмлари
3. Илк ўрта асрлар Ўрта Осиё костюмлари
4. Ўрта асрлар Ўрта осиё костюмлари.

Эрамыздан аввалги 250 йилларда Салавкийлар подшолигидан ажралиб чиққан Бактрия кейинроқ Ҳиндистон ерларининг катта қисмини ўзига қаратиб олиб, эрамыздан аввалги 2-асргача ҳукум сурган. Бу давлатга греклар подшоҳлик қилгани учун унинг номи **Грек-Бактрия** деб юритилди. Унинг худуди *Сўғдиёна, Марғиёна (Туркменистоннинг жанубий шарқий томонлари), Фарғона ва Чочнинг бир қисмини ўз ичига олган.* Бу давлат деярли 100 йилдан ортиқ вақт мобайнида мавжуд бўлиб, Ўрта Осиё тарихи ва маданиятида сезиларли из қолдирган.

АНТИК ДАВР АЁЛЛАР ЛИБОСИ

Бу даврдаги аёллар либосида юнон, хиндистон ҳамда скифлар услубининг таъсири сезилади. Улар одатда ички ва устки: яъни елка, бел, бош ва оёқ кийимларидан иборат бўлган.

1-УСЛУБ

Туникасимон бичимли услуб, Кўкрак тагида ва белида белбоғ билан боғланган тўғри кўйлак. Ёқа қисми думалоқ, олди эса томчисимон кесимли бўлган.

2-УСЛУБ



Бўй баравар мато парчасини елкада тўғноғич билан бириктирилган. Этагининг ён бурчаклари боғланган тугун шаклида бўлган. Антик юнон хитонларида эса фарқли ўлароқ этаги эркин тушиб, драпировкаланган. Белида ёки кўкрагининг тагидан бел боғ билан боғланган

КАФТАН БИЧИМЛИ ЛИБОС

Устки кийим – Бундай кийимлар скифсимон кафтанлар ва ёпинчиклар бўлган. Кафтан бичими туникасимон бўлган. Шакли тўғри ёки гавдага ёпишиб турган. Енги тор ва узун бўлган. Баъзан кўндаланг тахламлари ҳам учрайди. Кафтанлар тик ёки диагональ йўналишда қавилади. Ёқаси ва олди тўқилган тасма билан безатилади. Кўйлак ёки тафтан устидан ёпинчоқ кийиларди. Улар бўй баравар тўғри тўртбурчак матодан қилиниб, елкага ташланади. Олд учлари эса тўғнағич билан бириктирилади.

Бел кийими: узун, этикка киргизилган иштонлардан иборат.

Бош кийими: конуссимон наamatдан қилинган қалпоқлар, юмшоқ ясси шапкалар, салласимон, тожсимон бош кийимлар ва ёпинчиклар бўлган.

Безак тақинчоқлар: тожлар, зираклар, тилл ақошлардан иборат бўлган.

Оёқ кийимлари юмшоқ этик бўлган, гоҳида кўнжининг тепа қисми қайтарилган.

ЭРКАКЛАР КОСТЮМИ

Элка ва бел, устки ва ички кийимлардан иборат бўлган. Елка кийими ички кўйлак ва устидан кийиладиган кафтандан иборат бўлган. Туникасимон бичимли шакли тўғри бўлган. Кийим гавдага сал ёпишиб турган. Узунлиги



бўксасидан пастроқ ёки тиззагача тушиб турган. Узун енги тор ёки кўндаланг тахламли бўлган. Белига белбоғ боғланган. Бел кийими тор ёки кўндаланг тахламли иштонлардан иборат бўлган. Бош кийимлари ясси ёки конуссимон калпоқлар бўлган. Оёқ кийимлари эса юмшоқ, тепаси қайтарилган этиклар бўлган.

Ўрта Осиё антик костюмига скифлар, эллинлар ва ҳиндларнинг таъсири бўлган. Аммо Ўрта осиёликларнинг кийимларининг шаклида, кийиниш одатларида, кийим турларида маҳаллий одатларига оид хусусиятлари мавжуд бўлган.

Соч турмаклари: мураккаб ва хилма-хил бўлган. Ўрилган сочлар турли усулда турмакланган.





Буддизм туридаги либослар

Гавдага ёпишиб турадиган ёки сер дирапировкаланган кўйлак: устидан тугма ва нақшли тасма билан безатилган узун кўндаланг тахламли енгли кўйлак ёки кафтан, яна устидан кийилган энсиз кўйлак. Устки кийими эса ёпинчиқ бўлган.

Туникасимон, тор, узун, кўндаланг тахламли енли кўйлак, устидан бели боғланган хитонлар ёпинчонққа ўралган бўлган. Дирапировкаланган иштонлар бўксада кенг юмшоқ белбоғ билан маҳкамланган.

Бош кийими юмшоқ, бир учи елкага ташланадиган рўмол бўлган. Безаклари эса – билакузук, пешона осилчоқлари, тиллақошлар, оғир зираклар ва маржонлар бўлган.

XIX - XX аср Урта Осиё минтакасида улкан сиёсий ва ижтимоий узгаришлар даври булиб, унинг таъсири анъанавий кийимда ҳам сезилади. Бу пайтда Россиянинг Урта Осиё Козогистонга таъсири кучайиб, улар уртасида савдо муомаласини ривожланиши билан Россиядан келтириладиган газлама ассортиментининг кенгайиши билан улардан тайёрланадиган кийимлар бичими, эни (мато эни кенгайди), безаклари, ранглар узгарди.

XX арсда тикув машинасининг кенг таркалигаи туфайли, тикувчи ишини енгиллайдтириб, улар имкониятини анча кенгайтирди. Бу даврда "европа" кийим бичими кириб келиши билан Урта Осиё халқларининг анъанавий кийими кадимий куринишидан бир мунча узгарсада уларда урфий элементлар саклаб колинганди.

Урта Осиё ва Козогистон халқлари миллий кийимларида улар иклими, этносига кура фарк билан биргаликда, улар бирлаштирувчи, деярли бир хил бичими кузатилади. XX асрга кадар утпбу халқлар туникасимон-елкадан ошириладиган, бот учун киркимга эга кийим кийишарди. Бундай ухтатлик бот, белбогли ва оёк кийимда ҳам учрайди.

Ухшатлик тарзи барча халқларда учрайдиган йул - йул матоли кийимларда намоён булсада, улардаги ранглар узаро фарк килар эди. Ок рангдаги кийим, асосан эркаклардаги калта куйлак - рубаха барча халқларда учрайди. Улардаги умумий учрайдиган крестсимон кисиб чикарилиб, уй жихозларига кучди.

Маиший хаётга кийимларни бичиб тикиш, яъни елкаси киркимли, енгнинг овалсимон умизи, олд ва орка кисмли кийимларнинг таркали аввало

Россияга чегарадоид Козигистон ва Киргизистонда булб, сунг улар атрофига (камзол - мисол) таркалди.

Каракалпок ёшларнинг ардокли ранги кук булса, узбек ва тожикларда кизгига ранглар хисобланади.

Бот кийим эгник хусусиятга эга булиб, у нафакат халклар, балки ундаги маълум булакларда фаркка эга эди. Шундай булсада, барча халкларда салла, румол куринишидаги умумий бош кийим учрасада, уларнинг улчамлари узаро фарк килар эди. Салласимон бот кийим(узунлиги 3 - 11 м булган, тойи ва пахгалик мато) кадимдан бутун Шаркдавлатлари-Хиндистондан Мисрга кадар таркалганди. Хоразм бош кийими ва Шимолий Хиндистон бот кийимидаги ухшашлик уларнинг Хиндистондан келиб чикканлиги хакидаги фикрни илгари сурди. Салла турк аёлларига хам мансуб. Езда салла дуппи, кишда эса телпак устидан уралади. Ок рангли салла ОАИЙ табакага тегишли эркакларга мансуб булса, урта табакадагилар яшил, саргиш рангли салла урашарди.

Фаргоналиклар фикрига кура, салла уралган кишидан катъий тартиб, намунали хулк - атвор талаб этиларди. Шундан булса керак, бу минтакада саллани ураш чекланган эди.

Устки кийим булиб, тун - жома, камзол, чакмон, яхтак хисобланарди.

Кейинчалик умумий дупписимон бот кийимлар таркалиши ривожланди. Турмуш курган аёл ва эркаклар дуппи кийишар эди.

Доимо мулокотда булиб келган Урта Осиё халкларининг кийимлари узига хос хусусиятлари билан биргаликда, ухшаш томонларга хам эга.

Назорат саволлари

1. Урта Осиё костюмларнинг асосий тузилиши ва тури?
2. Урта Осиё даврдаги костюмларнинг газламаси ранги накиди?
3. Хар бир кадимий даврнинг умумий тавсифи?

Таянч иборалари :

Белбок, дупки, рубаха, умиз, тук, жома, чакмон.

GLOSSARIY

Avtoportret – potret tasvir, unda rassom o'zini tasvirlaydi

Assimetriya – simmetriyasizlik (nomutanosiblik)

Antik – qadimiy

Apollon – qadimgi grek mifologiyasida – Quyosh xudosi, san'at homiysi

Atlanta – arxitektura peshtoqlarini ko'tarib turuvchi, erkak figurasi shaklidagi ustunlar

Akademik uslub – Uyg'onish davri va qadimgi davr san'ati shakllariga asoslangan uslub

Garmoniya – bog'liqlik, uyg'unlik, mutanosiblik

Detal – naturaning ma'lum bir qismi

Drapirovka – fon uchun ishlatiladigan har xil rangli matolar

Zarisovka – tugallanmagan rasm, chizgi

Kartina – tasviriy san'at asari

Komponovka – chizilishi kerak bo'lgan naturani qog'ozga to'g'ri joylashtirish

Kompozitsiya – tuzish, bir-biriga ma'lum tartibda joylashtirish, solishtirish va birlashtirish

Kontrast – qarama-qarshilik, zidlik

Maska – niqob, san'atda David, Apollon yuz qismining gips nusxalari tushuniladi

Molbert – rasm ishlash uchun moslama

Model – namuna

Pastel – rassomchilikda ishlatiladigan rangdor yumshoq qalam. Tarkibi bo'yoq, bo'r va bog'lovchi moddadan iborat

Perspektiva – rasmda uzoqdan ko'ringan narsalarning tegishli kattalikda berilishi, qisqarish

Nabroska – xomaki ish, qoralama, xarakterli chiziq va shtrixlar yordamida tez bajarilgan chiziqli rasm

Natyurmort – tasviriy san'at janri (fransuzcha – jonsiz tabiat majmui)

Rakurs – suratda chizilayotgan uzoqdagi figura va buyumlarni kichraytirib ifodalash

Siluet – kishi, hayvon, qush kabi narsalarning soyaga o'xshatib ishlangan rasmi

Sangina – rassomchilikda ishlatiladigan yumshoq to'q qizil qalam

Tushuvchi soya – predmetdan tushayotgan soya

Plastik anatomiya – anatomiya bo'limi. Bunda inson tanasi nisbatlari, ichki tuzilishi va tana tashqi shaklining harakat vaqtida o'zgarishi o'rganiladi. Asosiy e'tibor skelet tuzilishi, muskullar, suyak va muskullar birlashishiga qaratiladi.

AKROPOL (grek. "akrorolis"-yukori shaxar)-axolining urush vaktida jon saklash uchun xizmat kiladigan (berkinadigan), tepalikka kurilgan va mustaxkamlangan kadingi grek shaxarining kismi, uning kal'asi.

AKROTERIY (grek. "akgoterion" - chukki, fronton) - antik binolar frontonining burchaklari ustiga va markaziga kuyilgan xaykal yoki naksh motivlari.

AL-FRESKO (ital. «a[^]fgesso» — ho'l yuza ustidan) — devoriy surat ishlash texnikasi . Ho'l suvoq ustidan rasm ishlash.

ALLEGORIYA– o'z ma'nosidan boshqa ma'noga ko'chirilgan ifoda. Masalan. Tulki ayyorlik, taroz adolat, to'ti tushunmay qaytarish, qum soati vaqt o'tishi va x.k.

GLIPTIKA — yuzasi nafis bo'rtma tasvir (relf) bilan qoplangan silindrik muhr, tumorlar. Toshtaroshlik san'ati *gliptika* deyiladi.

GOBELEN – qo'lda to'qilgan gilam-manzara. 1662 yili asos solingan. Parij manufakturasining maxsuloti. Manufaktura xozir ham gobelenlar chiqaradi. Uning asosiy binosi XV asrdan buyon mashxur bo'lgan bo'yoqchi Gobelen avlodining ustaxonasi edi. Manufaktura nomi xam, u yerda chiqarilgan gilamlar xam gobelen deb yuritiladi.

GORELEF (fransuz, yuqori relf) — relf turi , unda tasvirlar yuzaga nisbatan sezilarli darajada bo'rtib chiqqan bo'lishi va ba'zida o'z ko'rinishi bilan dumaloq haykalga o'xshashi mumkin, lekin bu haykallarning biror qismi albatta, yuzaga yopishgan bo'ladi.

GOXUA – xitoy milliy san’ati. Suvbo‘yoq (akvarel)da qog‘oz yoki shoyiga ishlanadigan rassomlik.19-asr oxri 20 asr boshlarida qayta tiklangan.Chiziq va rang surtma (dog‘)lari yordamida neytral fonda ishlanadi

GRIZAYL (frans. *grisaille*, *gris* –kulrang so‘zidan) – asari bir rang (qora, jigarrang, ko‘k, ko‘pincha kulrang) ning nozik tuslanishi (ochdan to‘q tusga o‘tishi) hisobiga yaratiladigan bezak, rassomligi turi. XVII asrdan qo‘llaniladi, klassitsizm usullaridan birining ichki bezaklaridan xaykaltaroshlik releflariga taqlid sifatida keng tarqalgan (Pushkin sh., Pavlovsk sh. Saroylari va b.). Shuningdek tasvirning bo‘rtmali ko‘rinishi tasvvuriga erishilgan bir rangli emal (kulrang, jigarrang, pushti rang) bilan ishlangan hamda zarhallangan rasmlar ham grizayl deb ataladi. O‘zbek tasviriy va amaliy bezak san’atida ham grizayl uslubida asarlar yaratilgan.

GRIFON (frans. *giffon*) - burgut boshli va sher tanali, kanotli afsonaviy maxluk, xayvon.

DIADEMA (grek. *diadema*) - kadimgi Gretsiya koxinlarining boshini boglaydigan narsa, keyinchalik xukmdorlik belgisi sifatida ochik tojga uxshatib ishlangan kimmatbaxo ayollar bezagi.

DIPTER - atrofi ikki kator ustunlar bilan uralgan ibodatxona.

DOLMEN - tik urnatilgan 2 yoki 4 ta tosh ustidan yassi tosh bostirilgan yodgorlik (Ibtidoiy davrlarda kuplab kurilgan).

DIPTIX (grek. *dirtichos* — ikki qatlangan) — o‘rta asrlar san’atida keng tarqalgan, ikki qismdan iborat relief yoki rangtasvirdan tuzilgan asar.

DONATOR (ital.) - ibodatxonalar uchun kup mablag sarflagan, zakot bergan shaxs.

DROMOS (grek. *dremos*)- koya yoki yerni uyib, yer ostidagi saganaga yoki dafn kilinadigan xonaga olib boradigan usti berk yulak.

DEZINYaTOR (dezinyatsiya) – organizator protsessi (pop-artchilar) haqida, masalan M.Dyushan va b.